

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

JISMONIY MADANIYAT FAKULTETI

JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI VA USULIYOTI KAFEDRASI

“Tasdiqlayman”

Jismoniy tarbiya fakulteti

dekani: _____ p.f.n. B.B.Ma'murov

“ _____ ” _____ 2015 yil

Ixtisoslik: 5112000- jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi IV kurs talabasi

JO'RAYEV NAZM HASANMURODOVICHNING

**KURASH SPORT TURI MUTAXASSISLARINI ILMIY-AMALIY
TAYYORLASHDA AL-HAKIM AT-TERMIZIY XALQARO
TURNIRINING TUTGAN O'RNI MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

(2014-2015 o'quv yili)

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga ruxsat
etildi. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va
uslubiyoti” kafedrasi mudiri
_____ Q.P.Arslonov.

_____ « _____ » _____ 2015 yil.

Ilmiy rahbar:

_____ U.T.Mukarramov.
Viloyat KIM.G.G. nomli taekvondo
ITF federatsiyasi raisi

Rasmiy opponent:

_____ p.f.n. Sh.D.Abdullayev

Buxoro-2015 yil

M u n d a r i j a

Kirish.....

I BOB. Termiziylar tarixi haqida ma'lumot

1.1. O'zbekistonda al-Hakim at-Termiziy merosini o'rganilishi tarixi.....

1.2. Al Hakim at Termiziyning hayoti va ijodi.....

II BOB. Al-Hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan kurash bo'yicha xalqaro turnirining tashkiliy asoslari va o'tkazish uchun ishlab chiqilgan nizom hamda xakamlik iboralari

2.1. Kurash musobaqalari nizomi.....

2.2. Musobaqa turlari.....

2.3. Kurash formasi.....

2.4. Kurash musobaqasida iboralar va ishoralar.....

III BOB. Turnirlarning o'tkazilish jarayonlari

3.1. I-IX turnirlar o'tkazilishi va prezident sovrinlari.....

3.2. Birinchi turnir.....

3.3. Ikkinchi turnir.....

3.4. Uchinchi turnir.....

3.5. To'rtinchi turnir.....

3.6. Beshinchi Xalqaro turnir.....

3.7. Oltinchi turnir.....

3.8. Ettinchi turnir.....

Xulosa.....

Adabiyotlar.....

Al-Hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan kurash bo'yicha Xalqaro musobaqa qatnashchilariga!

Aziz Xalqaro musobaqa qatnashchilari!

Siz ishtirok etayotgan bellashuv o'zbek xalkining buyuk farzandi al-Hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlanganligi bejiz zmas. Zero, alloma xalqimnz salomatligi va ravnaqi yo'lida faoliyat ko'rsatib, bu sohada katta axamiyatga molik risolalar qoldirgan.

O'tkazilaetgan musobaqa kelajakda O'zbekiston diyorida xalq sog'likini mustaxkamlashga o'z xissasini qushadi. O'ylaymanki, bu bellashuv jismoniy tarbiya va sportning turmushdagi ahamiyatini yanada yuqori darajaga ko'tarishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Sizlarni kurash bo'yicha xalqaro musobaqaning ochilishi munosabati bilan qizg'in qutlayman. Bellashuvda bugun qatnashayotgan polvonlarning ko'pchiligini kelgusida jahon, olimpiada va Osiyo o'yinlarining shohsupasida ko'ramiz, deb umid qilaman.

Musobaqa jarayonida bir-biringiz bilan xalol, mardona va sof insoniy munosabatlarda bo'lishingizni istayman. Har biringizga omad yor bo'lsin!

O'zbekiston Rsspublikasi
Prezidenti
Islom KARIMOV

Kirish

Ishning dolzarbligi: Hozirgi kunda «Kurash»ni jahon miqyosida yana keng rivojlantirish, butun dunyo yoshlari qalbidan mustahkam o'rin olishini ta'minlash, kelajakda uni Osiyo va Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritish masalasi shaxsan Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimovning diqqat e'tiborida turibdi va u o'z yo'nalishida shaxdam qadamlar bilan ilgarilab bormoqda.

Bu ishda Xalqaro «Kurash» Assosiatsiyasi, Respublika Kurash Federatsiyalari rahbar xodimlari fidoiylilik ko'rsatmoqdalar. O'zbek kurashi butun sport olamida yangi sport turi sifatida tan olinishi munosabati bilan I.A.Karimov 1999 da yangi sport turi sifatida «Kurash Xalqaro Assosiatsiyasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi farmonga imzo chekdilar. Bu farmon nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda «Kurash»ning ommaviy ravishda keng tarqalishiga ko'mak bo'ldi.

SHuning uchun ham bu tadqiqot ishi dolzarbdir.

O'zbekistonda mavjud uch bosqichli sport musobaqa tizimining dasturidan o'rin olgan o'zbek kurashi xalqimiz yoshlari o'rtasida tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotganligini amaliyotda ko'ramiz. O'zbek kurashi boshqa Olimpiya sport turlari singari milliy qadriyatimiz doirasidan chiqib, umuminsoniy qadriyatga aylanib borayotganligini doimiy ravishda his etmoqdamiz. Ana shunday olamshumul sport voqealari bo'layotgan hozirgi kunda Buxoro viloyat Kurash Federatsiyasi va Buxoro Davlat Universiteti olimlari, o'qituvchi-mutaxassislari bunday buyuk ishdan chetda qolmaslik maqsadida o'zlarining sermahsul mehnat faoliyati bilan kurash talaba yoshlar o'rtasida yanada ommaviy rivojlanishini ta'minlashda fidoiylilik ko'rsatmoqdalar.

Respublikamizda buyuk allomalar va davlat arboblari xotirasiga bag'ishlangan Xalqaro turnirlar o'tkazilib kelinmoqda. SHulardan biri ulug' vatandoshimiz Al-Hakim At-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan Xalqaro turnirning sakkizinchi 2007 yil aprel oyida o'tkaziladi. Ana shu Xalqaro turnir oldidan viloyatimiz barcha qishloq, shahar va tumanlari hamda viloyat bosqichida kurash musobaqalari o'tkaziladi. Universitetda esa guruhlararo

fakultetlar birinchiligi va fakultetlararo universitet birinchiligi o'tkazilib, uning g'oliblari shahar va viloyat birinchiligi musobaqalarida qatnashadilar. Ana shunday musobaqalarda shu o'quv yilida 300 dan ortiq talaba ishtirok etdilar. Bu kurashimiz ommaviyligining namunali ko'rsatkichi desak bo'ladi.

Fakultetimizda ishlayotgan professor-o'qituvchilar universitet talabalari o'rtasida kurashning ommaviyligini ta'minlash bilan talabalarimizni ham jismonan, ham ma'naviy jihatdan tarbiyalashni o'zlarining bosh maqsadlari deb biladilar va shu ustida doimiy ish olib boradilar. Sportning kurash turi o'smirlar o'rtasida ommalashib ketdi. Bu mamlakatimizda sport va jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uchun qulay sharoitlar yaratilganligi tufayli rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bunda o'smirlarning sog'lom, chaqqon, kuchli va eng yaxshi polvonlar Evropa, Jahon chempionlari bo'lishga intilishlari muhim ahamiyatga egadir.

Mamlakatimiz polvonlarining xalqaro maydonda o'z o'rinlari bor. Kurash bilan kichik yoshdan shug'ullanish lozim, chunki ayni shu davrdan kelgusida yoshlar sport mahoratining yuksalishi uchun poydevor bo'luvchi chaqqonlik, tezkorlik, epchillik va kuchlilik kabi fazilatlar samarali rivojlanadi va takomillashadi. Bundan tashqari, o'smirlar ko'proq taqlid qilish xususiyatiga ega bo'lib, murakkab texnik harakatlarni kattalarga nisbatan osonroq o'zlashtirdilar. O'smirlarni kurashga qiziqtirish uchun sport texnikasiga ko'ra xalqaro qoidaga yaqin bo'lgan milliy kurash turlarini rivojlantirish katta ahamiyatga egadir. Rossiya federatsiyasi, O'zbekiston, Qozog'iston, Gruziya, Tojikiston, Armaniston va boshqa davlatlarda sportning kurash turini rivojlantirishga katta e'tibor berilayotgani tufayli ayni shu joylarda jahon miqyosida taniqli polvonlar etishib chiqmoqda.

Ishning maqsadi: Kurash sport turi mutaxassislarini ilmiy-amaliy tayyorlashda Al-Xakim at-Termiziy xalqaro turnirining tutgan o'rnini o'rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Ishning ob'ekti: Kurash sport turi mutaxassislarini ilmiy-amaliy tayyorlashda Al-Xakim at-Termiziy xalqaro turnirining ahamiyati.

Ishning predmeti: Al-Xakim at-Termiziy xalqaro turniri.

I BOB. Termiziylar tarixi haqida ma'lumot

1.1.O'zbekistonda al-Hakim at-Termiziy merosini

o'rganilishi tarixi

Imom at-Termiziy milodiy 824 yilning kuzida (yoki 825 yilning bahorida, hijriy 209 yilda) Bug' qishlog'ida dehqon oilasida (ba'zi manbalarda kambag'al oilasida deb ko'rsatilgan, bu noto'g'ri talqin bo'lishi kerak, chunki Marvda yashagan uning bobosi o'rtahol kishi hisoblanib, urush natijasida Termizga ko'chib kelgan, Marvda ancha yaxshi hayot kechirishgan) tug'ilgan. Otasi dehqonchilik bilan shug'ullanadi va Abu Iso tug'ilishidan sal oldinroq Termizdan Bug' qishlog'iga ko'chib kelgan. SHu va shunga o'xshash dalillar, aniqrog'i Termiziylar sulolasi, vakillari, keyingi avlodlari haqida qo'shimcha ma'lumotlarni hech qaysi manbalarda uchratmadik. Bu borada faqat taxminlar va farazlar mavjud, yana bir sababi, Imom at-Termiziy o'zi va avlodlari haqida kengroq bir manba yozib qoldirmagan, shuningdek, biz tahlil va tahsil qilgan barcha manbalarda aynan shu fikrlar keltiriladi.

Ming yillar o'tdi, lekin hadislardan, ularning mazmunidan foydalanish ishlari hozir ham davom etmoqda, nafaqat davom etmoqda, balki rivojlantirilmoqda, muhaddis ulamolarning hayoti va faoliyati o'rganilmoqda. Imom at-Termiziy hadislarni yig'ishda ilm ahliga qarata shunday deganlar: «Ilmga berilgan kishilar qanchalik ko'p o'qishsa, shunchalik kam bilishini his etadilar, ilmsiz kishilar esa o'zlarini dono sanashadi. Lekin o'zlarini qaysi ilmda dono sanashlarini hattoki ta'riflab bera olmaydilar». Bu fikrda chuqur ma'no yashiringanligi so'zsizdir, Payg'ambari islom bir hadislarida: «Albatta, ilmning ko'tarilib ketishi va ilmsizning o'rnashib, sobit bo'lib qolishi, ichkilik va zinoning oshkora bo'lishi qiyomatning alomatlaridandir», - deganlar.

Islom dinining asosiy manbalari bo'lib hisoblanmish +ur'oni karim va Hadisi shariflarda ilmning, aniqrog'i, ilm ahlining namoyon bo'lishi sifatлари to'g'risida aniq ta'riflar mavjud. Ular, xususan, olim kishi quyidagi sifatleri va xususiyatlari bilan ajralib turishi kerak, bularga: salomlashish va ko'rishish odobi, taqvo, raiyatga (qo'l ostidagilarga), oila a'zolariga va kishilarga bo'lgan

muomalasi, majlisda o'tirish odobi, ovqatlanish, uzr so'rash, o'zini tutish, safarda yurish odoblari va h.k. kiradi. Eng qiziqarli tomonlaridan biri ilm izlash odobidir. Imom at-Termiziyning bu masalada quyidagi hadislarini keltirish mumkin: Rasululloh aytdilar: «Kimki ilm axtarib uyidan chiqsa, u uyiga qaytib kelgunga qadar Alloh yo'lida yurgan hisoblanadi».

Imom Termiziy Alloh rasulining shamoyillarini yozib qoldirgan jahonda yagona muhaddis bo'lib hisoblanadi. Ungacha va undan keyin ham hech kim ushbu ishni amalga oshira olmadi. Payg'ambari islomning fazilatlarini biror shaxs bu qadar aniqlik bilan yorita olmadi. O'z navbatida bu asar («Ash-shamoil an-nabaviya») qancha olimu fozillarning ilm qilishlariga, izlanishlariga, payg'ambarimizning hayotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishga asos bo'ldi.

Ulamolarning: «Imom Termiziy hadis ilmida iqtido(ergashadigan) qilinadigan imomlardan biridir» degan fikri bor. Lekin, fikrimizcha, Imom at-Termiziy hadis ilmining davomchisi emas, balki ularni rivojlantirib, o'zgacha yo'nalish tashkil etib, hadis ilmiga yangi talqin bergan (muhaddis imomlarni muhokama etishdan yoki ularga hurmatsizlik qilishdan yiroqmiz, balki tarixga aniqlik kiritish maqsadida) asosiy muhaddis sanaladi. Masalan: ul zot hadislarini sahiyh, hasan va g'ariybga ajratishi bilan muhaddislar ichida ajralib turgan, ikkinchidan payg'ambarimizning shamoyillari haqida asar bitgan, uchinchidan hadislarini soddaroq tilda (ommaga tushunarli bo'lishi uchun) bayon qilgan va hokazo.

«Islom milliy an'analarining, islom madaniyatining tiklanish jarayoni islomni tashqaridan har qanday «import» qilishdan voz kechish, islomga siyosiy tus berish va siyosatga islom ruhini baxsh etishdan voz kechish to'g'ri ekanligini ko'rsatdi. Movarounnahrning musulmon madaniyati etnik sabr-toqat va bag'rikenglik ruhini o'zida aks ettirdi. Uning Forobiy va Ibn Sino asarlarida o'z in'ikosini topgan ideali - fozil kishilar shahri nafaqat diniy asosda, balki madaniy va axloqiy negizda ham uyushgan odamlarning hamjamiyatidan iborat bo'lganligi tasodifiy hol emas. Konstitutsiyamizda yozib qo'yilgan dinga e'tiqod qilish erkinligi O'zbekiston yoppasiga «islomlashtirilishi» mumkinligi haqidagi noo'rin

hadiksirashlarga barham berdi. Boshqa diniy oqimlarning tiklanishi va normal rivojlanishini mumkin qilib qo'ydi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyodagi islom dinining ruhan o'ziga xosligini anglab etish madaniy boyligimizning bir qismi bo'lmish islomdan oldingi madaniyatni chuqur o'rganishni taqozo qiladi».¹

Bunday jarayon bugungi dunyoda amaliyot falsafasi deb tan olingan pragmatizm, hayot falsafasi bo'lgan ekzistentsializm kabi dunyoviy va diniy g'oyalardan oziqlangan ta'limotlar misolida ham ko'zga tashlanmoqda.

Ilmiy kashfiyotlar mafkura rivojiga katta ta'sir o'tkazadi. Zamonaviy fan yutuqlari, jumladan, kosmonavtika, kibernetika sohasidagi olamshumul yangiliklar, klonlashtirish, insonning gen-nasl xaritasini aniqlash kabi buyuk kashfiyotlar odamlar tasavvurini keskin o'zgartirmoqda. Hadislardan foydalanishda yuzaga keladigan ilmiy muammoning pedagogik echimi xalq pedagogikasini takomillashtirish, uning ilmiy-uslubiy shakllarini yaratish bilan bog'liqdir.

Hadislarning boy ma'nosi esa uni uqish, tushunib etish jihatiga bog'liqdir. Masalan: «Allohdan qo'rq! Yaxshilikni kichkinasini ham kichik demay qilaver. Agarchi chelagingdan suvni suv olmoqchi bo'lgan kishining chelagiga quyib berish bilan yoki birodaringga ochiq chehra bilan yuzlanishing bilan bo'lsa ham yaxshilik qil. Kiyiming etagini kibr uchun uzun qilma! Zero, kibrni Alloh yaxshi ko'rmaydi. Agar seni biror kishi so'kib, senda yo'q ayb bilan seni ayblasa, sen uni unda ayb bilan ham ayblama, uni qo'ya ber, shunda gunohi unga, savobi senga bo'ladi. Hech qachon hech kimni so'kma!»

Ushbu hadisni turli xil fanlar, yo'nalishlar, g'oyalar asosida sharhlash mumkin. Buning uchun esa albatta, ulardan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish metodlarini izlash zarur. Imom at-Termiziyning muhaddislik faoliyati shariat, tariqat, ma'rifat va hikmat asosiga qaratilgan bo'lib, ilm hamda donishmandlikning bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. Aqliy bilish, ilohiy ma'rifat, axloq dasturi allomaning mashhur bo'lgan sifatlaridir. Imom Termiziy fihiy uslublarni o'rganib, ba'zi hadislarni rivoyat qilar ekan, u hadisning qonunshunoslikka qanday taalluqli

ekanini bayon qilishga harakat qilgan muhaddisdir. At-Termiziyning ba'zi hadislarida inson ilmi, aqli-zakovatining tahliliga oid bo'lgan fikrlar mavjud. Ushbu fikrlar ko'p olimlarning bahs- munozaralariga sabab bo'lgan.

U hadislar yordamida inson tarbiyasiga ta'sir ko'rsatish masalalarini rivojlantirishga harakat qilgan. Islom dini ta'limotida tarbiyaviy vositalarning rolini aniqlash orqali insonning ma'naviy salohiyatini ro'yobga chiqarish ishlarini muhim deb bilgan. O'z asarlarida inson tarbiyasining turli yo'nalishlariga e'tibor qaratgan ekan, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy asoslariga ham diqqatini qaratdi va ko'plab falsafiy, huquqiy savollarga javob topa oldi. U insonning axloqiy qiyofasi ijtimoiy muhit bilan, uning taqdiri va boshqa xususiyatlari o'z e'tiqodi bilan bog'liq deb hisoblagan, uning fikricha «olim kishilar inson ruhini va e'tiqodni tarbiya qiluvchi kishilardir». SHubhasiz, Imom at-Termiziy vatanimiz tarixida islom madaniyatining ilmiy-pedagogik asoslari shakllanishida o'z asarlari, tarbiyaviy fikrlari bilan xizmat qilgan mashhur alloma bo'lib sanaladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar al-Hakim at-Termiziy merosini o'rganish faqatgina bu alloma dafn etilgan maqbara tarixini o'rganish bilan chegaralandi, xolos. Bu borada 1936-1938 yillarda Eski Termizda prof. M.E.Masson boshchiligida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari nashr etilgan to'plamlarda (M.E.Masson, 1940; 1945) al-Hakim at-Termiziy maqbarasi, ayniqsa, alloma shogirlaridan biri Xoja Varroq mozori (Abu Bakr Umar al-Varroq Termiziy) haqidagi ma'lumotlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Ayniqsa, 1960 yilda M.E.Masson tomonidan al-Hakim at-Termiziy maqbarasidagi tarixiy yozuvlarning «Nadpisi na shtuke iz arxitekturnogo ansamblya u mavzoleya Xakima Tarmizi» mavzusida e'lon qilinishi juda muhim bo'ldi.

M.E.Masson o'zining bu maqolasida nafaqat maqbara va undagi tarixiy yozuvlarni, balki al-Hakim at-Termiziy biografiyasi va asarlariga ham sharhlar berishga muyassar bo'ldi. SHunday qilib, O'zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar amalda Vatanimizda al-Hakim at-Termiziy hayot yo'li, asarlari va ta'limoti tarixiga bag'ishlangan alohida asar yoki risola yaratilgani yo'q.

1990 yilda al-Hakim at-Termiziy vatandoshi buyuk muhaddis Abu Iso Muhammad at-Termiziyning 1200 yilligi va undan so'ng O'zbekiston mustaqillikka erishgandan boshlab al-Hakim at-Termiziy hayot yo'li, ta'limoti va asarlariga bag'ishlab qator tadqiqotlar e'lon qilina boshlandi. Bu borada Abdug'ani Abdullaning al-Hakim at-Termiziyga bag'ishlagan maqolalari juda muhim bo'ldi. 1991 yilda Toshkentdagi «Mehnat» nashriyoti Mahmud Hasaniy va G'oliba Jo'raevalar mas'ulligida al-Hakim at-Termiziyning «Navro'znoma» va «Solnoma» asarlarini nashr etdi. SHunday qilib, vatanimizning mustaqillikka erishuvi barcha ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarida bo'lganidek, al-Hakim at-Termiziy merosini o'rganishda tub burilishni boshlab berdi. Ayniqsa, mustaqillikning dastlabki yilidan al-Hakim at-Termiziy me'moriy majmuining ziyoratchi va sayyohlar uchun ochilishi juda muhim voqea bo'ldi.

Al-Hakim at-Termiziy maqbarasiga tashrif buyurgan vatandoshlarimiz va xalqaro sayyohlik guruhlar sonining ko'payishi, o'z navbatida alloma dafn etilgan maqbara, olim hayoti, asarlari va ta'limoti haqida mukammal ma'lumotlar bitilgan risola va qo'llanmalarning nashr etilishini talab etdi. Bu borada 1998 yilda T.Annaevning «Al-Hakim at-Termiziy» (T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1998.) va J.Omonturdievning «Al-Hakim at-Termiziy ta'limoti» (T., «Universitet», 2000.) juda muhim bo'ldi.

2000 yil al-Hakim at-Termiziy merosini o'rganishda muhim bosqichni boshlab bergan yil hisoblanadi. Bu avvalambor, al-Hakim at-Termiziy tavallud topib, voyaga etgan ona shahri Termizning 2500 yillik tantanalarini nishonlash munosabati bilan alloma merosini asosli va chuqur o'rganishga e'tibor berilishi edi. Termiz shahrining 2500 yilligi munosabati bilan taniqli ismloshunos U.Uvatovning 2001 yil Toshkentda «Ma'naviyat» nashriyotida «Al-Hakim at-Termiziy» risolasi, 2001 yili «SHarq» nashriyotida nashr etilgan «Termiz-buyuk yo'llar chorrahasidagi ko'hna va yangi shahar» asari(maqolalar to'plami)da, «Termizning ulug' odamlari» maqolasi nashr yuzini ko'rdi. U.Uvatovning 2005 yilda Toshkent «SHarq» nashriyotida e'lon qilgan «Ikki buyuk donishmand»

risolasi al-Hakim at-Termiziy va buyuk muhaddis Imom Iso at-Termiziy merosini vatandoshlarimizga targ'ib va tashviq qilishda muhim bo'ldi.

2001 yilda «O'zbekiston Milliy qomusi» nashriyotida Mirzo Kenjabekning «Termiz tazkirasi» ham nashr etildi. 2003 yilda A.SHoshiy arabchadan Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali Hakim at-Termiziyning «Manozil ul-ibod min al-iboda» asarini tarjima qilgan bo'lsa, I.Usmonov 2006 yilda «Al-Hakim at-Termiziy hadislar», «Navodir al-usul» asari asosida (arab tilidan tarjima) asarini nashr etdi.

Bundan tashqari Jalol Mirzoning «Termiz sayidlari» (Samarqand, 2001.), «Termiz tarixi» (T.: «SHarq», 2001.) mualliflar jamoasining «Buxoro tarix ko'zgusida» (T.:«SHarq»,2001.), «Buxoro tarixi» (T.:«SHarq»,2004.), S.Tursunovning «Termiziy buyuk siymolar» (T.:«SHarq»,2002.), B.+odirov va B.Murtazoevlarning «CHag'oniyon adabiyoti» (T.:YAngi asr avlodi, 2002.) nomli asarlarida ham alloma merosiga e'tibor qaratilgan.

Al-Hakim at-Termiziy merosini o'rganish va targ'ib qilishda Termiz davlat universitetida keyingi yillarda e'tiborga loyiq tadqiqotlar e'lon qilindi. Bu borada surxonlik olimlardan B.Murtazoev, R.Abdullaev va Z.CHorievlarning ilmiy tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tmoq lozim. 2004 yilda Termiz davlat universitetida «Al-Hakim at-Termiziy va uning davri» mavzusida xalqaro ilmiy anjuman tashkil etildi. Universitet tarixchi va adabiyotshunos olimlarining al-Hakim at-Termiziy merosini o'rganish borasida amalga oshirilgan izlanishlarining mantiqiy yakuni Z.CHoriev, T.Aннаev, B.Murtazoev, J.Aннаevlar tomonidan yaratilgan va 2008 yilda nashr etilgan «Al- Hakim at-Termiziy» asari hisoblanadi. Monografiyada al-Hakim at-Termiziy hayot yo'li, qisman tavalludi va vafoti sanalari bahsi, allomaning tasavvufiy merosi, yaratgan asarlari, ularning saqlanayotgan joylari, aniq nomlari, amalga oshirilgan nashrlari, tarjimalari, ayrimlarining umumiy tahlili, ilm zikridagi fikrlari o'z bayonini topgan.

Termiz shahrida har ikki yilda bir marta o'tkazilayotgan xotira turniri ulug' vatandoshimiz, benazir alloma nomi bilan yuritilar ekan, u kishining hayoti va faoliyati haqidagi ayrim nuqtalarga ham muxtasar to'xtalib o'tishni lozim topdiq

Zero, ulug' bobolar haqida kuproq ma'lumotga ega bo'lmoq, ularning qutlug' merosini o'rganib bormoq o'tmishni anglash yo'lida o'ziga xos qadam bo'ladi, deb o'ylaymiz.

1.2. Al Hakim at-Termiziy hayoti va ijodi

Allomaning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn al-Xdsan ibn Bashir al-Xdkim at-Termiziy bo'lib, 749 yilda tavallud topgan. Ayrim manbalarda olimning uzoq ya'ni 116 yoki 120 yil umr kurganligi haqida aytiladi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra uning otasi Ali ibn al-Xasan o'z zamonasida hadis ilmining taniqli olimlaridan biri bo'lgan. At-Termiziyning yozishicha, onasi va bobosi ham o'z davrida hadis ilmida mohir kishilar bulishgan. Ma'naviy barkamol, ilm-ma'rifat nuri bilan munavvar bo'lib turgan xonadonda tug'ilgan va tarbiya topgan at-Termiziy keng tafakkur egasi bo'lib shakllanadi. Uning har jihatdan kamol topishida otasi Ali ibn al-Xdsanning xiz-matlari juda kattadir. Al-Hakim at-Termiziy kitoblaridan birida shunday yozadi:

- Alloh taolo meni ustozim — validamdan judo kllganda sakkiz yoshda edim. Uning sa'yixarakatlari sababidan men ilm olishga shu qadar berilib ketgandimki, kitob mutolaa qilish men uchun asosiy mashg'ulot bo'lib qolgan edi. Validamning ijti hodlari tufayli men shu yoshimda "Ilmal-osor" ("Qadimiy rivoyatlar (hadislar) xloqidagi ilm") va "Ilm ar-ray" (Diniy masalalarda o'z fikrini bildirish) bilimlarini to'liq egallab olgan edim...

Otasi vafotidan keyin al-Hakim at-Termiziy o'z shaxridagi etuk olimlardan tafsir, xadis, fiqh ilmlaridan saboq oladi. Termizlik muxaddislar Solih ibn Abdulloh at-Termiziy, Abu Muxammad Solgoh ibn Muxammad ibn Nasr at-Termiziylardan hadis ilmini o'rgatganligi haqida ma'lumotlar bor. Mutafakkir Farididdin Attorning yozishiga qaraganda, al-Hakim at-Temiziy yigirma etti yoshga etganida ikki birodari bilan o'sha davrda ma'rifat markazi sanalgan Bag'dodga borib, ilm olish maqsadida hozirlik ko'ra boshlaydi. Bu paytda onasi banogoh betob bo'lib qoladi va o'g'liga shunday deydi:

— Ey, o'g'lim, men bir mushtipar, zaifa ayol bo'lsam, menga yordam beradigan sendan bo'lak biror kimsa bo'lmasa, mening butun borlig'im faqat sen bilan bog'liq bo'lsa. Meni kimga tashlab ketmoqchisan?

Al-Hakim at-Termiziyga onasining bu gaplari qattiq taʼsir qilib, ilm talabidagi safaridan voz kechadi. Uning ikki birodari esa yo'lga tushadilar. Bu voqeadan keyin bir necha muddat vaqt o'tgach, al-Hakim at-Termiziy Bag'dodga borolmaganligi uchun goyatda afsuslanib maqbaralardan birining yonida yig'lab xafa bo'lib turganida, uning yonida yuzlaridan nur yogilib turgan bir shayx paydo bo'ladi va undan yig'lashining sababini so'raydi. Al-Hakim at-Termiziy unga yuz bergan voqealarni boshdan-adoq aytib beradi. SHunda shayh istasang, men senga har kuni turli ilmlardan saboq berib, seni o'qi'taman, deydi. Al-Hakim at-Termiziy uning bu suziga darrov rozi bo'ladi. Bu hol bir necha yil davom etadi. So'ngra u bilsaki, bu kishi Xizr alayxissalom ekanlar. Uning bu saodatli marhamatga erishishi volidai muhtamasining duosi barokatidan bo'lgan edi.

Aytish kerakki, al-Hakim at-Termiziy o'z zamonasining barkamol allomalaridan saboq olgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, olimga avval otasi Ali ibn al-Hasan at-Termiziy ustozlik qilgan. So'ngra Qutayba ibn Sad'iy as-Saqafiy al-Balxiy, Solixh ibn Abdullox at-Termiziy. Solih ibn Muxammad at-Termiziy, Sufyon ibn Vahiy, Al-Hasan ibn Umar ibn SHafiq al-Balxiy, Axmad ibn Xadravayh, YAqub ibn SHayba ibn as-Salt, Abu Turob an-Naxshabiy. YAXbya ibn Maoz ar-Roziylar ustozlik qilishgan.

Ilmda katta maqom va darajaga erishgan al-Hakim at-Termiziy xam o'z navbatida ilm olamida keng tanilgan shogirdlarni etishtirdi. Masalan, Abu Muxammad YAXge ibn Mansur al-Qoziy, Muxammad ibn Jarfar ibn Muxammad ibn al-Xaysam ibn Umron ibn Burayda, Abu Ali al-Hasan ibn al-Jurjoniy, Axmad ibn Muxammad ibn Muso, Abu Mansur Ali ibn Abdullox ibn Xolid as-Suxliy al-Hiraviy, Abu Bakr Muxammad ibn Umar al-Hakim al-Varroqlar ulug' olimning qulida taxsil-saboq olishgan. Aytmoq joizki, bu olimlarning xar biri ilm olamida bir dunyodir.

Farididdin Attorning "Tazkirat ul avlie" asarida ezilishicha, al-Hakim at-Termiziy musulmon mamlakatlarida tanilgan 96 shayxning biri bo'lgan.

Manbalarga qaraganda, olim 28 yoshida Haj safariga yo'l oladi. Yo'l-yo'lakay Iroqda tuxtab, Kufa, Basra shaxarlari olimlari, muxaddislari bilan muloqotda bo'ladi. Aytadilarki, muborak Haj safari, shu safar chog'ida ulug' olimlar bilan qilingan qizg'in suxbatlar al-Hakim at-Termiziy xayotida katta ma'naviy burilish xosil qiladi.

Al-Hakim at-Termiziydan boy ijodiy meros qolgan. Atoqli turkshunos olim Fuot Sezgin Hakim Termiziyning 80 ta asari borligini yozadi. Biroq eronlik olim Abulxusayn Zarrinub "Justuju dar tasavvufi Eron" ("Eron tasavvufi bo'yicha tadqiqot") kitobida al-Hakim at-Termiziyning 400 ta asar yozganligini hikoya qiladi. SHarqshunos olim Ubaydulla Uvatov o'zining "Al-Hakim at-Termiziy" nomli risolasida shunday yozadi: "...Misrlik olim shayx Abdulfattoh Abdulloh Barakaning xabar berishicha, al-Hakim at-Termiziy turt yuzdan ortiq asarlar yaratgan bo'lib, ulardan oltmishga yaqini bizgacha etib kelgan. Eng muhimi al-Hakim at-Termiziyning bizga ma'lum bo'lgan asarlari uning ilmiy-ma'naviy merosining muxim qismini tashkil qiladi. Mana shularning eng avvalida payg'ambar alayhissalomning hadislariga bag'ishlangan "Navodir ul-usul fi ma'rifat axbor Rasul" ("Rasululloh xabarlarini bilishda nodir usullar") nomli asarini aytish keraq 291 xadisdan iborat bu kitob hijriy 1294 (milodiy 1876) yilda chop etilib, al-Hakim at-Termiziy o'z mazxabiy qarashlarini mufassal holda sharhlagan". Ubaydulla Uvatovning yozishicha, Parij Milliy kutubxonasida al-Hakim at-Termiziyning 12 ta asari qo'lyozmasi saqlanmoqda. SHuningdek olimning beshta asari qo'lyozmasi Londonda, bir qator kitoblari Damashqda, Misr Arab respublikasining yirik shaharlaridan biri Iskandariyada, Qohirada, Leyptsig, Istanbul shaxri kutubxonalarida saqlanayotir.

Ubaydulla Uvatov yana shunday yozadi: "Al-Hakim at-Termiziyning al-Hakim laqabi bilan atalishi masalasi olimu ulamolarni azaldan qiziqtirib kelgan va bu masalada turli fikrlar Ham bildirilgan. "Xakim" so'zi-ning tarixiga nazar solsak bu ibora Qur'onda ham, Tavrotda ham uchraydi. Xokimning lugaviy ma'nosi dono,

donishmand, aql-idrokli, faylasuf shuningdeq tabib tushunchalarini anglatadi. SHu sababdan ba'zi olimlar uni hatto mohir tabib deb ham ataganlar. At-Termiziy yashagan davr istilohlariga tayanib bayon qtshtsak hikmat (Xakimdan olingan) iborasi haqiqatga etishishni anglatib, bunga ilm va aql bilan erishish mumkin deb izohlangan. Xkim shunday shaxski, u mukammal aql-idrok va chuqur bilim bilan har doim haqiqatga erishadi. Al-Hakim at-Termiziy o'zining "Tahsiyl nazoir al-Qur'on" nomli asarida "Xakim ilmning ichki, botiniy ma'nolarini tushunuvchi kishi" degan fikrni keltirgan. Qur'oni Karimga "Mafotih al-g'ayb" nomli o'n besh jilddan iborat ulkan tafsir yozgan buyuk vatandoshimiz Faxriddin ar-Roziy hikmatdan murod yoki ilm, yoki savob, ya'ni tug'ri ish qilishdir, deb talqin qilgan. Tasavvuf ahli ham "hakim" so'zini shu mazmunda ta'vil qshshb, "hikmat" - ilm-bilimdan yuqoriroq darajada turadi, "hakim" deb har qanday ilmni chuqurroq o'zlashtirgan kishiga aytiladi, chunki bu sharaflı darajaga uzoq mashaqqat va riyozat orqali erishiladi deb ta'kidlaydilar." ("Al-Xakim at-Termiziy", Toshkent. "Ma'naviyat" nashriyoti, 2001. yil).

Alisher Navoiy o'zining "Nasoim ul-muhabbat" asarida yozadi: "Muhammad bin Ali Xakimi Termiziy - ikkinchi tabaqadandur. Kuniyati Abu Abdullohdur. Mashoyixi kibordandur va Abu Turob Naxshabiy va Ahmad Xadravayx va Ibni Jalla bilan suhbat tutubdur va ko'p hadisi bor va zohir karomati va tasonifi (yozgan asarlari) bor. Ul jumladin "Xatm⁸ ul-viloya" kitobi va "Nahaj" kitobi, "Navodir ul-usul" va bundan o'zga bir tafsir "Qur'on tafsiri" ham ibtido qilgondur. Ammo itmomiga (oxiriga) ular vafo qilmaydur..."

Ulug' zotlardan Xoja Bahouddin shunday degan ekanlar: "Aziz avliyolarning peshvosi Xoja Muhammad Ibn Ali al-Hakim at-Termiziyning ruhoniyatiga tavajju)g'im tushganda, har safar menga ta'rif va tavsifdan xoli tasavvuf namoyon bo'ladi".

Xullas, ulug' bobomiz, yurtdoshimiz al-Hakim at-Termiziy ilmdunyasida tengi yo'q alloma, kamolot sohibi va baland maqomdagi mutafakkir bo'lgan.

Biz milliy kurash haqida gap yuritar ekanmiz, uning xususan, keyingi yillarda el ogziga tushgan mashhur vakillari to'g'risida hikoya qilmoqchimiz. Misollarni esa mamla-katimiz miqyosida emas, balki Surxon vohasi timsolida kel-tirmoqchimiz. CHunki bu mavzu o'z ko'лами va miqyosiga ko'ra shu qadar keng va poyonsizki, u kerak bo'lsa bir

necha kitobni tashkil etadi. SHuning uchun ham biz faqat bir viloyat misolida o'zbek milliy kurashining yaqin tarixdagi va bugungi kundagi, taraqqiyot yo'liga bir nazar tashlamoqchimiz.

Darvoqe, Surxonda tug'ilgan o'g'il bolalarning kurash tushmaydigannini topish amri-mahol. Vohada har bir o'g'il bola u yoki bu darajada kurashchidir. Ammo el og'zi-ga tushadigan mashhur polvonlar xar bir urug'dan, elatdan, xalqdan vaqti-vaqti bilan chiqadi. Ular katta kurash maydonlarida mashhur polvonlarning kuragini erga tekkizgandan keyingina nom qozonib, shu tariqa el if-tixoriga aylanib qoladilar.

Vohamizda qadim-qadim zamonlardan buen nomi uzoq-uzoqlarga ketgan polvonlar bo'lishgan. Xalqimiz ularni hozir ham faxr bilan eslab keladi. Ikkinchi jahon urushidan oldingi va qisman keyingi yillarda nafaqat viloyatimizda yoki mamlakatimizda, balki butun Markaziy Osiyo respublikalarida ham nom qozongan Buxorolik polvonlar ko'p bo'lishgan.

Masalan, boysunlik Qosim, Umir, Xidir, Norg'uch, Turo, Berdi-yor, sherobodlik Qurbonmurod, Egamberdi, Karim, Zoir, Bobomurod, Turob, Qarshi, Yo'ldosh, Bobosodiq, jarqo'rgonlik Vallamat, Rahmon arab, Ergash, Rajab, Ko'char, termizlik Davman, Bobomurod, Lo'kcha, CHo'tan, Mirza, sho'rchilik Jaylov, Aliboy, Mengziyo, Xolmat, Yo'ldosh, Alman, denovlik Ismat, Abduxoliq, Xidir, Erkin, Xurram, Karim, Muxtor, Xudoyberdi, sariosiyolik Mamashukur, Juma, Mamasaid, Mirza polvon-larni Buxoroliklar to hanuz katta hurmat va ehtirom bilan esga oladilar. Katta davralarda ularning botirliklari va pahlavonliklarini yoshlarga hikoya qilib beradilar. Ta'bir joiz bo'lsa, ularning o'z davrida ko'rsatgan pahlavonlik bobidagi jasoratlari, yashab o'tgan mardona hayotlari keyingi avlod vakilla-riga unutilmas maktab bo'lganligi va bo'layotganligi-ga ham shubha yo'q.

Bir narsani ta'kidlash o'rinliki, nomlari tilga olingan polvonlarning izidan 70-90 yillarda bir-biridan zo'r shogirdlar etishib chiqdi. o'tgan asrning oxirgi yigirma besh, o'ttiz yilida shu qadar esda qoladigan, dov-rug'i baland iahlavonlar etishib chiqdiki, bu narsa ku-rashimiz tarixida o'ziga xos zarhal bitiklar bo'lib

qol-di. Biz esa bu o'rinda ularning eng mashxurlari haqida so'z yuritmoqchimiz. Ular o'zbek milliy kurashi dovrug'i-ni jahon miqyosida tarqatgan botir, epchil va yurtpar-var. oriyatli polvonlardir. Bunday nomdor polvonlar safida boysunlik Xolmamat Daminov, SHoberdi G'undaev, Jumaqul Eshonqulov, Xudoyberdi Muhammadiev, sherobodlik YUsuf Egamberdiev, Bobomurod YOqubov, Karim Xo'jaqulov, G'ani Normurodov, qizirshushk YAxshi-boy Qarshiev, Jovli Sattorov, Majid Ashuraliev, Bolta Xolmatov, jarqo'rg'onlik Yo'ldosh Normatov, Nortoji Boymatov, Xushboq Xurramov, Turan Ergashev, O'rol Qurbonov, Xoliyor Elmurodov, Tohir Durdiev, Rustam Ergashev, angorlik Normurod Qodirov, Qodir Qurbonov, Nurmat Qulmurodov, Allaberdi Xudoyber-ganov, SHukur Ermatov, Suvonqul Normurodov, Nora-li va Mamayusuf Norboevlar, sho'rchilik Alimardon Valiev, Hamza Haydarov, Abdulla Normurodov, Boboxon Xudoyberdiev, Ochildi Sattorov, Abdurasul Ergashev, Ergash Xudoyorov, Yo'ldosh Abrammatov, Oqboy Omonov, Bozor Hayitov, SHodmon Valiev, Meliqul Lolaev, denovlik Jabbor Mahmarasulov, Abdunazar Xoliyorov, Yo'ldosh Allayorov, Saidahmad Ahmadqulov, Anvar Nodirov, Dilmurod Turdiev, Abdulla Sirojiddinov, Karim Turdiev, YOqub G'afurov, Abdulla Ibrohimov, sariosiyolik Ne'mat Norboev, Ibrohim Mamasoliev, CHori Mamashukurov, termizlik Jo'ra Safarov, CHori Boboniyozov, Panji CHoriev, SHafoat SHomurodov, Ro'zi Hasanov, Rajab Xudoyqulov, Haydar G'afforov, Jura Normatov, Ro'zi O'taev, Qurbon Ergashev, Jura Qo'shinboev, Juma CHoriev, aka-uka Abdurazzoq va Usta Ustaevlar, Avliyoqul Qurbonov, Jo'rabek Ro'ziev, Baxtiyor Hasanov, Juma Annaev, Kamol Boytura-ev, Bahrom Arziev, Jabbor va Maxtumquli Maxmudov-lar, SHavkat Ibroximov, Ilhom Boboniyozov, Ikrom Mamadalievlar borki, ularni minglab odamlar tanishadi, to hanuz ular haqida hikoya qilishadi.

Arxiv hujjatlari bilan tanishganimizda, shuningdek, sport faxriylari bilan suxbatlashganimizda shu narsa ma'lum bo'ladiki, 1949 yildan e'tiboran milliy kurash bo'yicha viloyat, respublika birinchiliklari, umum-o'zbek spartakiadasi, qishloq sportchilari spartakiada-si dasturi doirasida polvonlarimiz o'zaro bellashganlar.

Milliy kurashdagi mashg'ulot va ko'nikmalari orqali boshqa sport turlarida natijalarga erishishgan. Bu erda qiziq bir holat ko'zga tashlanadi. O'sha paytdagi sport mutasaddilari, mutaxassislar milliy kurashdan o'z maqsadlari yo'lida foydalanib, boshqa bizga yot bo'lgan an'analarga ergashishdi. SHu tariqa kurash qonuniyatlaridan chetlashib borishdi. Polvonlarni kurashda erishgan yutuqlari uchun emas, balki sportning boshqa turlari bo'yicha qatnashib g'alabaga erishganliklari uchun rag'-batlantirishardi. Bu esa o'z navbatida katta sport o'rtasida milliy kurashning obro'siga u yoki bu darajada putur etkazardi. Ayrim kishilar kurash orqali mamlakat, qit'a, jaxon maydoniga chiqib bo'lmasligini xadeb takrorlayverardilar.

Qanchalik kamsitish va mensimasliklarga qaramasdan, xalq sevgan o'yin - milliy kurash el ichida baribir ardoq-landi.

Agar xayolan afsonaviy Alpomihdan tortib bugungi navqiron Abdulla polvon Tangrievgacha bo'lgan davrga nazar tashlaydigan bo'lsak, O'zbek milliy kurashi mashaqqatli va dovrug'li yo'lni bosib o'tdi. Mustaqllik tufayli endilikda jahonning o'nlab mamlakatlarida o'zbek sporta kurash musobaqalari, birinchiliklariizmaiz o'tkazib turilibdi. Ku-rashimiz olis Afrika mamlakatlaridan tortib YAngi Ze-landiyagacha bo'lgan katta masofalarni sharaf bilan zabt etmoqda- O'zbek kurashi dunyo sportchilarining tobora mexrini qozonib, qiziqish ortgandan ortib bo-rayotir.

Termiz shaxrida, Toshkentda, Buxoro, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida keyingi yillarda o'tkazilgan kurash birinchiliklari, Xalqaro musobaqalar sportimizning milliy turiga bo'lgan qiziqishni yanada oshirishga xizmat qilmoq-da. Bu musobaqalar bir-biridan kuchli, mahoratli polvon-larning etishib chiqishiga vosita bo'lmoqda.. Bir narsa bugungi kunning ayon va rad etib bo'lmas haqiqatiki, ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan o'zbekning milliy kurashi dunyo bo'ylab keng yoyilmoqda.

Xulosa tariqasida shuni aytish kerakki, kurash o'zbek xalqining madaniyatiga, adabiyotiga, pedagogikasiga, axloq va jismoniy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Lekin kurash uzoq yillar nazardan chetdan qolaverdi. SHo'ro dav-rida boshqa ko'p sport turlariga zo'r berildi. Kurash bilan bog'liq bo'lgan xalq udumlari, folklori unutilayozgan edi...

Milliy kurash turlarini rivojlantirish sharqiy-janubiy mamlakatlardan Xitoy, Koreya, Tailand kabi mamlakatlarda yaxshi hal qilingan. YAponiyada hatto maxsus universitet ham bor. Ularning mutaxassislari butun jaxon davlatlarida faoliyat yuritishadi.

Mamlakatimizda ham kurashni rivojlantirish uchun dastlabki qadamlar qo'yildi. Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov tashabbuslarini qo'llab-quvvatlab Surxondaryo viloyati xokimining Xalqaro kurash musobaqa-si o'tkazish haqidagi qarori ana shunday qutlug' qadam-larning biri edi. Ishonamizki, kurash Olimpiada o'yinlarida o'zining munosib o'rnini egallaydi.

II BOB. Al-Hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan kurash bo'yicha xalqaro turnirining tashkiliy asoslari va musaboqani o'tkazish uchun ishlab chiqilgan nizom hamda xakamlik iboralari.

O'zbekistonning qadimgi va navqiron shahri Termizda o'zbek milliy kurashining Buxorocha usulida xalqaro turnir o'tkazish tasodifan tug'ilgan emas. Buxorocha milliy kurash bo'yicha Pahlavon Mahmud xotirasiga, keyinchalik Buxoro viloyati +orako'l tumanida Tursun ota YUsupov, hazrat Bahouddin Naqshband va nihoyat 1992 yildan boshlab +ashqadaryo viloyatidagi SHahrisabz shahrida buyuk bobokalonimiz Amir Temur xotirasiga bag'ishlab kurash turnirlari o'tkazila boshlandi. Ularning barchasida Buxorolik polvonlar muvaffaqiyatli qatnashib keldilar. Milliy kurash Buxoroda Respublikamizning boshqa viloyatlari orasida ko'proq ommaviylashgan va taraqqiy etgan. SHuning uchun ham milliy kurash bo'yicha turnirni oldingilaridan ham ommaviyroq, tashkiliy jihatdan o'zgacharoq, hamda sifat jihatdan yuqori, xalqaro andozalarga mos qilib o'tkazishga qaror qilindi. Buxoro jahonshumul tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan al-Hakim at-Termiziy va Imom Iso at-Termiziylar kabi vatanimiz shonu shuhratini dunyoga tanitgan buyuk ajdodlarimizning yurtidir. SHuning uchun ham al-Hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlab xalqaro milliy kurash turnirini o'tkazish taklifi bilan sport faxriylari viloyat hokimiga murojaat qildilar. Viloyat hokimligi bu murojaatni qo'llab-quvvatladi va qaror qabul qildi.

Bu turnirni Buxoroliklar respublikamizning boshqa viloyatlarida o'tkazilayotgan turnirlardan farqli, viloyat hududida uch bosqichda, ya'ni tashkilot, korxona, xo'jalik va o'quv yurtlarida birinchi, tumanlar miqyosida ikkinchi va nihoyat uchinchi bosqichni viloyat birinchiligi darajasida o'tkazishni rejalashtirilib, Buxoroda milliy kurashni ommaviy rivojlantirishni maqsad qilib qo'ygan edilar. Bu esa Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimov tashabbusi bilan «Sog'lom avlod» fondining ta'sis etilishiga aynan mos kelgan edi.

Viloyat hokimligi rahbarligida bu ishga kasaba uyushmalari viloyat tashkiloti, «Kamolot» YOIH, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi, sport tashkilotlari, oliy va o'rta maxsus bilim yurtlari hamda tashkilot va korxonalar jalb qilinadi.

Xalqaro turnir oldidan kurashning birinchi bosqich musobaqalari 1992 yil dekabr va yanvar oylarida, ikkinchi bosqich 1993 yilning fevral oyida, uchinchi bosqich viloyat birinchiligi musobaqasi mart oyida o'tkazilib xalqaro turnirga ishtirok etuvchilar tanlab olindi.

SHuni aytish joizki, birinchi bosqich kurash musobaqasi viloyatdagi aksariyat tashkilot va o'quv yurtlarida bo'lib o'tdi.

Ikkinchi bosqich musobaqasi qo'mita vakillari ishtirokida har bir tumanda bayramona yuqori saviyada o'tkazildi.

Tumanlarda maktab o'quvchilarining musobaqalari, katta yoshdagilar, 35 yoshgacha, 45 yoshgacha va undan katta yoshdagi polvonlar o'rtasida musobaqalar alohida o'tkazildi.

Har bir shahar va tumandagi sport inshootlari qayta ta'mirlanib, bayramona bezatildi. Har bir g'olib polvonga mukofot va homiylar tomonidan qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Viloyatimiz barcha tumanlarida kurash musobaqalari nihoyatda qiziqarli va ommaviy tarzda o'tkazildi. Ayniqsa, Termiz shahri, Jarqo'rg'on, +umqo'rg'on, SHerobod, SHo'rchi, Denov va Uzun tumanlarida o'ta qiziqarli va yuqori saviyada o'tkazildi. Musobaqalarning har birida 250-300 nafar polvonlar ishtirok etdilar. Ana shu musobaqalarda o'z vazn toifalari bo'yicha g'olib chiqqan polvonlar maxsus tayyorgarlikdan o'tib, xalqaro turnir oldidan o'tkaziladigan viloyat birinchiligi musobaqasiga qatnashdilar. Viloyat musobaqasi Jarqo'rg'on tuman hokimligi tashabbusi bilan shaharning markaziy stadionida mart oyining 5-7 kunlarida yuqori saviyada o'tkazildi. +aytadan ta'mirlangan «Paxtakor» stadionida bo'lib o'tgan kurash musobaqasida 360 dan ortiq polvonlar ishtirok etdilar. Rustam Ergashev o'tkazilgan musobaqaning mutlaq g'olibi bo'ldi.

Xalqaro turnir 1993 yil 3-5 aprel kunlari o'tkazildi. Unda respublikamizning barcha viloyatlaridan va chet mamlakatlardan 340 nafar polvon ishtirok etdi.

Har bir uchrashuv nihoyatda keskin va murosasiz bo'ldi. Turnirning mutlaq g'olibi Buxorolik O'rol To'raev, II-o'rinni Rustam Ergashev, III-o'rinni 71 kg vaznda Kamol Boyto'raev egalladi.

Keyingi 1995 va 2005 yilgi turnirlar ham uch bosqichda o'tkazilib kurashning jahonga yuz tutishiga juda katta ahamiyat kasb etdi.

Mustaqillik bizga azaliy qadriyatlarimizni, kurashimizni qaytarib berdi. Istiqlolning ilk yilla-ridanoq Prezidentimiz tashabbusi bilan qator xorijiy davlat polvonlari ishtirokida kurash bo'yicha nufuzli bellashuvlar o'tkazishga kirishildi. Qorako'lda Tursun ota, SHaxrisabzda Amir Temur, Buxoroda At-Termiziy, Buxoroda Baxouddin Naqshband, Andijonda Bobur Mirzo, Xorazmda Paxlavon Mah-mud xotirasiga bag'ishlab Prezident sovrini uchun o'tkazilgan xalqaro turnirlar fikrimizning tasdig'idir.

1992 yili O'zbekistan Prezidenti Islom Karimov Komil YUsupov bilan o'tkazgan suxbatlaridan biri-da Termizda kurash bo'yicha ulug' allomalar sha'niga xalqaro turnir o'tkazish lozimligini ta'kidlab, ushbu turnir orqali otabobolarimizning muborak nomlarini e'zozlash kerakligini aytib, o'z ko'rsatmalarini bildirgan edilar.

SHundan so'ng amaliy ishlar boshlanib ketdi. Mu-sobaqa nizomi ishlab chiqildi. Unga ko'ra dastlab mak-tab, texnikum, universitet miqyosidan tortib toki viloyatgacha bo'lgan oraliqda kurash musobaqalari o'tkazish ko'zda tutildi. So'ngra barcha tuman va shaharlarda ham kurash bo'yicha saralash bellashuvlari o'tkazilishi belgilab olindi.

Bu orada viloyatda kurash jamg'armasini tuzish rejasi ham o'ylab qo'yildi. Oradan ko'p o'tmay Viloyat xokimligida yig'ilish o'tkazildi. Taklif hamma-ga ma'qul bo'ldi. 1992 yilning noyabr oyida tashkiliy qo'mita tuzildi va unga Mamayusuf Xolboyev rais etib saylandi.

Tashkiliy kumitaning bir galgi yig'ilishiga Komil Yusupov ham tashrif buyurdi. Turni rni tashkil qilish va unga Xalqaro turnir maqomi berishni mamlakat rahbariyatidan so'rash masalasi qo'yildi. Xomiylar belgilanib, har bir tashkilot, korxona, jamoaga u yoki bu ishlar yuklatildi. Deylik. turnirga kelganlarga xizmat ko'rsatish,

ovqatlantirish, mehmonxona bilan ta'minlash va xokazolar. Buning barchasi ixtiyoriy ravishda xomiylar tomonidan amalga oshiriladi.

Mustaqilligimizning ilk yillaridayoq tashkil etila boshlagan Kurash musobaqalari yangi xalqaro Kurash qoidalari asosida o'tkazila boshlandi. Bir paytlari davralarda ayqashuyqash liboslarda, changto'zonga qorishib o'tkazilgan Kurash tadbirlari istiqloq nasimlari tufayli tom ma'noda sport ko'rinishini oldi. SHu o'rinda Komil YUsupov tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro Kurash qoidasini keltirib o'tishni joiz topdik. Zero, bugungi kunda dunyodagi kurash musobaqalari ay-kay ushbu tizimda o'tkaziladi.

2.2. Kurash musobaqalari Nizomi

a) musobaqaning nizomi musobakani tashkil qiladigan tashkilot tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi;

b) musobaka nizomida quyidagilar qayd etilishi lozim:

1. Musobaqa turi.
2. Musobaqaning maqsadi va vazifalari.
3. Qatnashuvchi tashkilotlar va jamoalar, qatnashuvchi (sport tasnifi, yoshi, jinsi, qaysi jamoadan ekanligi).
4. Musobaqa o'tkazish joyi va vaqti.
5. Musobaqa o'tkazish tartibi.
6. Musobaqada ishtirok etish shart-sharoitlari.
7. Musobaqani o'tkazishga mas'ul tashkilot.
8. Hakamlar hay'ati.
9. Bellashuv vaqti.
- 10 Musobaqada ishtirok etish uchun arizalar berish mud-dati.
- 11 Tibbiy nazorat va tozalikni ta'minlash tartibi.
- 12 Mandat komissiyasiga tavsiya etiladigan xujjatlar.
- 13 Noroziliklar bildirish va ularni ko'rib chshqish tar-tibi.
- 14 Musobaqa o'tkaziladigan sana va har bir vazn toi-fasida bellashuvlar boshlanish vaqti.
- 15 Musobaqa g'oliblari va sovrindorlarini mukofot-lash tartibi.

2.3. Musobaqa turlari

1. SHaxsiy birinchiliq

2. Jamoa birinchiligi.

3. SHaxsiy va jamoalar birinchiligi.

4. Ochikq gilam birinchiligi.

5. Mutloq birinchiliq

a) shaxsiy birinchilik: har bir kurashchining bellashuv natijalari uzining shu musobaqadagi olgan urnini aniqlash uchun o'tkaziladi. Musobaqa oxirida har bir vazn toifasida g'olib va sovrindorlar aniqlanadi.

b) jamoalar birinchiligida: har bir jamoaning olgan o'rni aniqlanadi.

v) shaxsiy va jamoalar birinchiligida: har bir qatnashchining olgan o'rni va shunga qarab har bir jamoaning olgan o'rni aniqlanadi.

g) ochiq gilam birinchiligida: har bir kurashchi o'zining sport klassifikatsiyasi, unvoni va mahoratini oshirish uchun bellashadi.

d) mutloq birinchilikda: xar qanday kurashchi vazn toifasidan qat'i nazar - Bosh hakam ruxsati bilan, qatnashish huquqiga ega.

2.4. Kurash formasi

1. Kurashchilar ko'k yoki yashil va oq rangli ishton kiyishlari shart va bu xolda birinchi chiqarilgan qatnashchi ko'k yaktakni kiyadi, ikkinchisi esa yashil yaktakni kiyadi. Ranglarning raqamlari: ko'k - 5 - zm; yashil - 4 - kx.

2. Kurash formasi paxtadan tayyorlangan bo'lishi, mato o'ta qattiq bo'lmasligi shart.

3. Quyidagicha belgilash ruxsat beriladi;

- davlat gerbi (chap ko'krakda, maksimal o'lchami 10x10 sm);

- ishlab chiqaruvchining savdo belgisi (3x3 sm, yaktakning oldi pastki qismida)

- elkadagi belgi (25 sm. dan ko'p bo'lmagan, 5 sm. eniga);

- tikishlar (25 x 25 sm. orqa tarafda ruxsat beriladi, sportchining familiyasini

joylashtirish mumkin).

4. YAktakning uzunligi tizzadan 15-20 sm. balandda bo'lishi lozim. YAktak ustidan bel atrofida ikki marta o'ralib boglangan belbog'aing tugundan uchigacha bo'lgan qismi 20 sm dan kam bo'lmasligi kerak. YAktak ranglari uzunligi ko'pi bilan qo'l tirsagidan 20-25 sm pastda bo'lishi kerak. Qo'l va eng orasi 8 sm bo'lishi kerak. Ishton uzunligi oyoq to'pig'igacha bo'lishi keraq. Oyoq va ishton orasidagi bo'shliq butun uzunligi bo'yicha 15 sm. Belbog' 4-5 sm eniga, rangi qizil bo'lishi kerak.

5. Kurashchi ayollar yaktak ichidan oq rangli futbolka yoki triko ustidan kalta engli yoqasiz ko'ylak kiyishi kerak.

6. Agar kurashchining kiyimi (yaktak va ishton) talab-larga javob bermasa, hakam kurashchidan uni almashti-rishni talab qilishi shart. Kurashchi qo'llarini oldin-ga uzatib, hakamni yaktak englari belgilangan qoidalar-ga mos ekanligiga ishontirishi shart.

7. Har ikki jinsdagi kurashchilar ham yalang oyoq kura-shadilar.

2.5. Kurash musobaqasida ishlatiladigan iboralar va ishoralar

1. **"TA'ZIM"** - kurashchilar o'ng qo'llarini chap ko'ksida tutgan holda bir-birlariga bo'yin egib salomlashish uchun ishlatiladigan ibora.

Bu iborani ishlatganda hakam ikkala qo'lini kaftla-ri bilan oldinga, yon tomonga ochib, keyin barmoqlari yuqoriga qaragan xolda balanddan bukib, qo'llarini ich-kariga aylantirish ishorasini qiladilar, bu vaqtda ikkala qo'lning barmoqlari bir-biriga uchma-uch holiga kelishi kerak.

2. **"KURASH"** - polvonlar bir-birovlariga ta'zim qilib. salomlashgandan keyin bellashuvni boshlash uchun hakam tomonidan ishlatiladigan ibora. Hakam o'ng qo'li-ni kaftlari bilan yon tomonga qaratgan tirsakdan bir oz bukib ishora qiladi.

3. **"TO'XTA"** - bellashuv davom etayotgan vaqtda bella-shuvni to'xtatish uchun ishlatiladigan ibora. Bu vaqtda hakam o'ng qo'lini kafti bilan oldinga qaratgan holda (barmoklar bir joyga jipslashgan) oldinga cho'zib ishora qiladi.

4. **"HALOL"** - kurashchilardan birovni sof g'alaba qil-gan vaqtda ishlatiladigan ibora. hakam o'ng qo'lini kafti bilan oldinga qaratgan holda yuqoriga ko'tarib (bar-moqlar jips holda) ishora qiladi.

- a) ikki **"YONBOSH"** bahosi olsa;
- b) raqib usul ishlatib, o'zi ikkala kuragiga yiqilsa beriladi;
- v) raqibga **"G'IRROM"** berilsa;
- g) **"YONBOSH"** olgan holda raqibida **"DAKKI"** bo'lsa;
- d) raqib 3 minut ichida gilamga chiqmasa.

5. **"YONBOSH"** - Hakam qo'lini kaftlari bilan pastga qaratgan holda (barmoqlar bir joyda jips) yon tomonga cho'zib ishora qiladi.

- a) kurashchilardan biri usul qo'llab, raqibini tezlik bilan bir kuragiga yiqitsa;
- b) yoki raqibga **"DAKKI"** e'lon qilinsa.

6. **"CHALA"** - baho kurashchilardan biri usul qo'llab, usulni oxirigacha to'liq bajara olmasa ishlatiladigan ibora. Bunda hakam qo'lini kafti bilan oldinga qaratgan holda tirsagidan bukib ishora qiladi.

- a) kurashchilardan biri usul qo'llab to'ligicha bajara olmasa;
- b) raqibga **"TANBEH"** e'lon qilinganda beriladi;
- v) nechta **"CHALA"** bahosi berilishidan qat'i nazar ularning umumiy soni jamlanmaydi;
- g) agar ikkala kurashchida ham bir nechtadan **"CHALA"** bo'lsa, g'oliblik ko'p **"CHALA"** olgan kurashchiga beriladi.

7. **"TANBEH"** - birinchi ogohlantirish, hamda hakam qo'lini oldinga chuzgan holda barmogi bilan tanbex, olgan kurashchini kursatib ishora qilib, shu iborani ishlatadi.

"TANBEH" ogohlantirish unchalik katta bo'lmagan xatolarga yo'l qo'ygan kurashchiga beriladi.

- a) kurashchi ataylab qochayotib, raqibga ushlab olishga yo'l qo'ymasa;
- b) ataylab raqibni gilamdan itarib chiqarsa yoki o'zi gilamning xavfli maydoniga chiqib ketsa;
- v) ataylab o'zining kiyimini hakamning ruxsatisiz echib yuborsa;
- g) ataylab raqibning kiyimini yoki osklarini ushlasa;

d) ushlab olgandan keyin 20-25 sekund vaqt davomida usul qo'llamas.

8. **"DAKKI"** - ikkinchi ogoxlantirishda ishlatiladigan ibora.

hakam qo'lini musht qilib, tirsagidan bukib ishora qiladi. (Qo'l barmoklar musht holiga kelgan va kaft old tomonga qaragan bo'lishi kerak).

"DAKKI" - **"TANBEX,"** dan keyin ikkinchi, unchalik katta bo'lmagan xatoga yo'l qo'ygan kurashchiga e'lon qili-nadi.

"DAKKI" birdaniga berilishi mumkin xollar:

a) kurashdan bosh tortib, ataylab tizzaga ko'p marta o'tirsa;

b) hakamning buyruqlariga rioya qilmasa, noma'lum so'zlarni gapirsa yoki baqirsa.

9. **"G'IRROM"** - oxirgi ogohlantirishda ishlatiladigan ibora. Hakam qo'lini kaftlari bilan pastga qaratgan holda yon tomonga cho'zib ikki-uch marta pastga silkitib ishora qiladi.

"G'IRROM" - katta xatoga yo'l qo'ygan (yoki **"DAKKI"** jazosini olgan va keyingi paytda unchalik katta bo'lmagan yoki o'rta toifadagi xatoga yo'l qo'ygan) kurashchiga e'lon qilinadi.

a) bellashuv davomida raqibning, hakamlarning sha'niga noma'qul so'zlarni ishlatib, baqirsa, har xil imoishoralar qilsa;

b) agar kurashchi bellashuv davomida raqibiga bila turib jarohat etkazsa, unda raqibga **"G'IRROM"** e'lon qilinib, shikastlangan kurashchiga **"HALOL"** beriladi.

10. **"BEKOR"** - olishuv to'xtatilgandan keyingi harakatlar uchun yoki bajarilgan usul baholashga noloyiq deb topilgan vaqtda ishlatiladigan ibora.

Hakam qo'lini kafti bilan yon tomonga qaratgan holda (barmoqlari jipslashgan) oldinga cho'zib, ikki-uch marta chapga va o'ngga harakatlantirib ishora qiladi.

11. **"TENG"** - olishuv tugagan vaqtda kurashchilarda baholar bo'lmagan holatda ishlatiladigan ibora. Hakam ikkala qo'lini kaftlari bilan pastga qaratgan holda yon tomonga cho'zib ishora qiladi.

12. **"VAQT"** - bellashuv vaqti tugaganligini ko'rsatish uchun ishlatiladigan ibora. Hakam ikkala qo'lini yuqori-ga ko'tarib kaftlarini bir-biriga qadagan holda

bilak-dan qo'shib ishora qiladi.

IZOH: ishoralar o'rtadagi hakamning ikki tomonda turgan kurashchilarning yaktagi rangiga qarab o'nt yoki chap qo'l bilan ko'rsa-talida. O'rtadagi hakam qo'l bilan ishoralarni ko'rsatish bilan bir vaqtda gilam o'rtasida tik xolatda iboralarni ham baland ovoz bilan aytib borishi lozim.

Taqiqlangan xatti-harakatlar

Kurash musobaqalarida quyidagilar taqiqlanadi:

- raqibning ishtonidan ushlab olish;
- raqibga shikast etkazish yoki uning hayotiga xavf tug'-dirishi mumkin bo'lgan usullarni qullash;
- bo'g'ish va og'ritish usullarini qo'llash.

Bellashuvning boshlanishi va tugashi

1. Har bir bellashuv boshlanishidan oldin uch nafar hakam (o'rtadagi hakam, ikkita yon hakam) musobaqalar o'tkaziladigan maydonning chetiga birgalashib turisha-di, o'ng qo'llarini chap ko'kraklariga qo'yib, o'zlarining joylarini egallashtan oldin bo'yin egib ta'zim qila-dilar. Musobaqalar o'tkaziladigan maydondan chiqish-dan oldin hakamlar takroran chetda yig'iladilar va o'ng qo'llarini chap ko'ksiga qo'yib, tomoshabinlar ko'p tomonga qarab, bo'yin egib, ta'zim qiladilar.

2. Kurashchilar ham gilamga chiqqandan oldin va uni tark etishda, ish maydoniga kirishda hamda undan chiqish-da, har bir bellashuvning boshlanishida, oxirida o'ng qo'llarini chap ko'ksiga qo'yib, bo'yin egib ta'zim qiladilar. Ish maydoni oldidagi egilishdan so'ng kurashchilar maxsus belgilangan joyga qadar to'g'riga yurishlari shart, keyin o'ng qo'lni chap ko'ksiga qo'yib bir-birlariga egi-lib ta'zim qilishlari shart.

3. Hakam bellashuv natijasini e'lon qilgandan so'ng kurashchilar yana bir bor o'ng qo'llarini chap ko'ksiga qo'yib bir-birlariga ta'zim qiladilar va gilamdan chiqib ke-tadilar.

4. Hakam va yon tomondagi hakamlar tayyorgarlik hola-tida bellashuvdan oldin,

kurashchilar gilamga chiqishlari-dan avval turishlari shart.

5.Hamma ta'zimlar bo'yin egish orqali bajariladi. Agar kurashchilar ta'zimni bajarmasalar, hakam uning bajarilishini talab qilishi kerak.

6.Gilamdagi hakamlar maydonni nazorat qilar ekanlar, gilamning usti tekis, toza, tatamilar orasi teshiksizligiga, yon hakamlar stullari o'z joylarida o'rnamishlariga va kurashchilar belgilangan qoidalar talablariga javob berib, e'tibor qaratishlari shart. Hakam gilam o'rtasida vaqt ruyxatga olinadigan stolga qarab tik holatda turishi kerak..

7.Hakam "TO'XTA" komandasini berar ekan, kura-shuvchilarni ko'rib turishi kerak, agar ular komandani eshitmasdan qoladigan hol kelib chiqsa, o'rtadagi hakam tezda ularga yaqinlashib, bellashuv to'xtatiladi.

III BOB. Turnirlarning o'tkazilish jarayonlari

3.1. I-IX turnirlar o'tkazilishi va prezident sovrinlari

Qadim-qadimdan ma'lumki, yurtning orini pahlavon-lar, mard o'g'lonlar, tadbirkor va aqli donolar olish-gan. SHuning uchun ham Sulton Husayn Mirzo Pahlavon Ali Rustoyini enggan pahlavoy Darvesh Muhammadni olqishlab, "Kim mening boshimni aziz tutishni istasa, Darvesh Muhammadga in'om bersin", degan ekan. Polvon-larning ko'ngli juda nozik bo'ladi. Uni ovlash, qadr-qim-matga etish oson emas. Polvon xalqi tarbiyaga, e'tibor-ga hamisha muhtoj. SHuning uchun ham podshohlar o'z sa-royida polvonlarni saqlab, ularga alohida e'tibor bi-lan qarashgan. Joyi kelganda jangu jadallarsiz, faqat polvonlarini bellashtirib, shu bilan mamlakatning us-tunligini sinashgan.

Ana shu urf-odatlar ko'p yillardan buyon e'tibordan chetda qoldi. O'zligimizni, aniqrog'i, yurtning faxri bo'lgan polvonlarimizni yo'qotdik. Borlariga esa etar-li e'tibor berolmadik. Mustaqilligimiz tufayli qad-riyatlarimiz tiklandi. Ming qatla shukurki, endi o'zi-mizning urf-odatlarni, milliy kurashlarni, to'y-tomosha-larni o'tkazadigan bo'ldik. Termizda al-Xakim at-Termi-ziy bobomizning xotirasiga bag'ishlab o'tkaziladigan Xa-lqaro milliy kurash musobaqasiga tayyorgarlik boshlan-gan kundan buen yurtodoshlarimiz amalga oshirgan katta ishlarni ko'rib turibmiz.

Termiz Buyuk ipak yo'liga qadar ham, jahon xalqlari-ning savdo markaziga aylanganda ham, bugungi kunda ham Tangrining nazariga tushgan yurtidir. Necha bor tiklanib, necha bor vayron bo'lishiga qaramay, jahon xalqlarining Termizga, uning aziz-avliyolariga hurmati balanddir.

Ulug' bobomizning xotirasini yodlab, uning ruhini shod etish maqsadida polvonlarimizning kuchini, quv-vatini, yurtga mehrini or-nomusini, mehmonlarga bo'lgan e'tiborini yana bir bor sinashga bel bog'ladik. Kurashlarimiz katta samara berdi. "Alpomish" o'yin-gohi - markaziy o'yingoh tanib bo'lmas darajada o'zgar-di. Bu o'zgarish polvonlarning hurmati, e'zozlanishi evaziga bo'ldi.

O'tmishda podsholikning bayroqlarini polvonlar mu-siqa sadolari ostida ko'tarishgan. Bugun ham xuddi shunday bo'ladi. Respublikamizning, mehmonlarning bayroqlari markaziy o'yingoxni bezab turadi. Biz o'tmishni qoralash-dan, tarixiy shaxslarning

boshidan qora balchiqlarni to'kishdan yiroqdamiz. Bizning o'z yo'limiz, o'z maqsadimiz, kurash usullarimiz bor. Eng muhimi, ertangi kunimizning umidi bo'lgan yoshlarni tarbiyalash diqqat e'tiborimizda turibdi. Kelajakning qanday bo'lishi ularga bog'liq. SHuning uchun ham biz ishni sportdan boshladik. Endi navbat shoiru yozuvchilarga, san'atkoru me'morlarga. Qadimiy yod-gorliklarning quriliishni, turli ranglarda jilvalanayotgan bo'yoklarning tarkibini xorijda o'rganib, hamon oxi-riga etkaza olishgani yo'q.. Biz o'sha ota-bobolarimizning, pahlavonlarning farzandlarimiz-ku, axir.

Mehr-saxovat ko'rsatishni ham, yurtni himoya qilish-ni ham, o'z eriga sadoqatni ham bizdan o'rganishgan. Biz bag'rikeng, savobtalab, ota-onalarining ruhlarini shod etish ruhida tarbiyalanganmiz. Bugungi bo'ladigan kurash-ga kelgan xar bir tomoshabinning kalbida bir olam orzu, tilak va yurtiga bo'lgan extirom bor. Polvonini olqish-lagan, qadrlagan el hech qachon xor bo'lmaydi. Asad Boltaev, Hasan Xudoyberdiev, Toshtemir Muhammadiev, Esh-boy Jabborov, Baxtiyor Rahmonov, Baxtiyor Begimqulov, Jabbor Mahmudov va boshqalarning eng kuchli kurashchi-lar sifatida tan olinganligidan faxrlanamiz. Ular bugun Buxoroning, O'zbekistonning shuhrati uchun bel bog'lab, maydonga tushishadi.

Rostini aytganda, yurtimizda shunday polvonlar bor-ligiga ishonmasdik. Jarqo'rg'onda bo'lib o'tgan Viloyat bo'yicha saralash musobaqalarida zo'rlarning zo'ri ko'rashib, bir-birini sinovdan o'tkazishdi. Birgina polvonlar emas, balki xalqimiz ham sinovdan o'tdi. O'sha kungi sovuqda va yomg'ir ostida dolgan tomoshabinlar, avvalo, Termiz otaga, qolaversa, yurt polvonlariga bo'lgan xurmat uchun turib berishdi. Xalqimizning inoqligiga, xamkorligiga, og'zi birligiga tasannolar aytging keladi.

YAna bir narsa: polvonlar bahona Termiziylar makoni - Termiz shahri obodonlashdi. Yo'llarga asfalt to'shalib, gullar, turli xil daraxt ko'chatlari o'tqazildi. Bu dastlabki qadamlar, albatta. Endi har ikki yilda bir marta shunday kurash musobaqalari bo'lib o'taveradi. Eng muhimi, kelgan aziz mexmonlarning hurmatini qozona olsak, nur ustiga nur bo'lur edi.

YUrtni aziz deb bilgan, polvonlarni or-nomusimiz-ning kurashchisi deb bilgan har bir Buxorolik ularga qancha in'om bersa oz. Polvonlarning xalol, o'z kuchi bilan g'olib bo'lishi, qo'yilgan sovrinlarii haqiqiy egalariga be-rilishi uchun kurashmog'imiz kerak.

O'shanda polvonlar xam, muxlislar xam, xalq xam bizga ishonadi. Xalqning ishonchi - ulug' ne'mat.

Aziz polvonlarimizni, yurtimizni Tangrining o'zi har qanday baloqazolardan asrasin!

*M.P.XOLBOEV,
birinchi Xalqaro milliy kurash
musobaqasini o'tkazish bo'yicha
tashkiliy qo'mita raisi.
1993 yil, 1 aprel.*

3.2. BIRINCHI TURNIR

SHunday qilib, katta rejalar, puxta tayyorgarlik va necha oylik ilhaqlik, xayajonlardan so'ng, ya'ni 1993 yil aprel oyi boshida al-Hakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlab Milliy kurash bo'yicha dastlabki Xalqaro turnir xam boshlanib ketdi. Termiz shaxridagi "Alpomish" markaziy o'yingohi muxlis, tomoshabinlar bilan to'lib ketdi. O'n ming kishi bazo'r joy bo'ladigan o'yingoxga un besh ming nafardan ko'proq tomoshabin tashrif buyurdi.

Birinchi turnirga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovdan tabriknoma keldi. Viloyat Hokimi uni yig'ilganlarga o'qib berdi. Hamma quvonch va xayajonda edi.

Darvoqe, I turnirning bosh hakami taniqli sportchi, O'zbekiston chempioni Juma Toshpo'latov bo'ldi. Turnirda qatnashish uchun chor tarafdan polvonlar kelishdi. Birgina Qashqadaryo viloyatidan 60 chog'li zo'r-zo'r polvonlar tashrif buyurishdi. Mashhur chempion, qilichboz Sobir Ro'ziev xam izzatli tomoshabin sifatida keldi. Turnir bellashuvlari qizgin va mazmunli o'tdi.

I Xalqaro turnir esda qolarli qiziqarli voqeaxodisalarga boy bo'ldi. Endi oyoqqa turayotgan turnirni o'tkazish uchun nima bo'lganda xam mablag' masalasi bir qadar muammo bo'lib turardi. Lekin xalq buni angladi. Turni-roldi musobaqalarida g'olib chiqqan polvonlarimizni xalq. tarafidan, ota-onalardan tushgan mablag'lar xisobiga mukofotladik. Ish ancha oson ko'chdi. Turnirning viloyat bosqichi Jarqo'rg'on tumanida o'tkazilayotganida bir kurash muxlisi o'z tomorqasidan o'n quti limon

keltirib tomoshabinlarga, polvonlarga tarqatib chiqdi. Uning xursandchiligi shu qadar cheksiz ediki, buni u shu tariha ifodaladi.

Tojikiston Respublikasidan pochta orqali al-Xakim at-Termiziy jamg'armasiga pul jo'natishdi. Qarangki, I Xalqaro turnirga tashrif buyurgan afg'onistonlik muxlislar xam g'oliblarga sovg'a-salomlar olib kelishdi. Vi-loyatimizdagi baquvvat bir tashkilot bir nechta televizor xadya qildi. Hatto kimdir tikish mashinasi sovg'a qildi. Hayron qoladigan jixati shundaki, xar kim xolislik bi-lan turnir jamg'armasiga ulush qo'hdi. Turnirning dov-rug'li o'tishida Buxoroliklarning yakdillik bilan sa-xiylik ko'rsatishlari alohida xissa bo'lib qo'shilganini aytmalik mumkin emas. Ular kurashga bo'lgan muxabbat-larini shu tariqa namoyon qilgan edilar.

I turnir kutilmaganda shov-shuvlarga to'da bo'ldi. Turnir bellashuvlarini keksa polvonlar boshlab berdilar. Aynqsa, YAngiariklik Ro'zi polvon bilan Yo'ldosh bobo Abramotov-lar kurash tushganini muxlislar zavq bilan kuzatdi. Ana shu bellashuv muxrlchangan tasvir butun dunyoni aylanib chiqdi. Bu sahna xamon televideniada namoyish qilinadi. Rus polvoni SHmakning kurash tushish maxorati ko'pchilikningg yodida mix-lanib qoldi. Kamol polvon To'ra Eshnaevni elkasidan oshi-rib otganida butun o'yingox larzaga keldi. Xullas, bu kabi voqealar juda ko'p. Ularning xar biri kurash bilan ulg'ay-gan, kurash zavqi yashaydigan xalqqa xos xolatlar edi. Aytish kerakki, I turnirda Buxorolik polvonlar faol qatnashdilar va shiddat, g'ayrat bilan kurash tushdilar. SHu o'rinda g'olib bo'lgan Buxorolik pol-vonlarning nomlarini bir-bir sanab o'tsak foydadan xoli bo'lmaydi. 66 kilogramm vaznda Jabbor Maxmudov, Husan Xudoyberdiev, 73 kilogramm vaznda Baxrom Arziev, Kamol Boyto'raev, Ilxom Daminov, Qahramon Boltaev, 90 kilogramm vaznda Baxtiyor Arziev, To'ra Eshnaev. Toshtemir Muhammadiev, 90 kilogrammdan yuqori vaznda Rustam Ergashev, O'rol To'raev faxriylar o'rtasida o'tkazilgan musobaqalarda g'olib bo'lishdilar, 70 kilogramm vaznda Olloyor Xudoyqulov, Bahrom Eshmurodov, 80 kilogramm vaznda Hasan Eshnazarov, Ashurali YOrov, 90 kilogramm vaznda Nortoji Boymatov, To-hir Durdiev, 90 kilogrammdan yuqori vaznda Abdulla Bakirov, 70 kilogramm vaznda Xudoyberdi Mustanov, 80 kilogramm vaznda Safar Qosimov, YAxshi-boy Qarshiev, Jo'ra Safarov, Viktor Bulatov, 90 kilogrammdan yuqori vaznda Boboxon

Xudoyberdiev, Jo'ra Toshmatovlar dastlabki turnir kurashlarida ko'p sonli muxlislarning yana e'tiboriga tushdilar.

Albatta, boshqa mamlakatlardan, qo'shni viloyatlardan, tashrif buyurgan katta polvonlar ham turnir dovrug'ini yanada oshirishga hissa qo'shdilar. Masalan, qashkadaryolik Odil Xushvaktov, Isoq Ahmedov, Sayfulla Rasulov, Mav-lon Ahmedov, Xudoyberdiev, G'ulom CHoriev, buxorolik Nor-muxammad YUsupov, xorazmlik Davron Qalandarov, tosh-kentlik Zokir SHaripov, tojikistonlik Abdulla Ochil-diev, afg'onistonlik Karim polvonlarning kurash tushish-larini tomoshabinlar katta zavq, hayajon bilan kuzatib bordilar va ularga astoydil tan berdilar.

SHuni ta'kidlash joizki, ilk turnirda mutloq g'olib-lik faqat Buxoroliklargagina nasib etdi. Qumqo'r-g'onlik dovrug'li Urol polvon To'raev termizlik Kamol Boyto'raev bilan hal qiluvchi kurashga tushadilar. Ikki polvon shiddat bilan kurash tushdilar. Pirovardida O'rol polvon g'olib chiqib, Prezidentimiz tomonidan qo'yilgan bir million so'm pul mukofotini olishga mu-sharraf bo'ldi.

Dastlabki turnir o'tkazilgan 3-4 aprel kunlari hayajonli holatlar ko'p bo'ldi. Ana shu turnir kunlari as-rimizning zo'r polvonlaridan biri marhum Tohir polvon Durdiev kurash maydoni bilan xayr-xo'sh qildi. So'nggi bor maydonda eldan duo oldi. Yigirmanchi asr katta polvoni-ning kurash bilan xayrlashishi butun uyingoxiga yig'ilgan-larni hayajonga soldi. Hurmat va ehtirom sifatida To-hir polvon to'rt tarafga qarab ta'zim bajo keltirdi. O'yingohni olqish tutib ketdi. Elkasi erga tegmagan polvon uchun bu galgi olqish, qarsaklar aloxida mazmun va qimmatga ega edi. Tohir polvon xayajon ichida so'zladi, shu daqiqada uning ko'zlaridan minnatdorlik, xayrla-shuv yoshlari kelayotgan edi.

Birinchi turnir kurashlarida Boboxon Xudoyberdi-ev, To'ra Toshmatov, Jo'ra To'raev, Rustam Ergashev, To'ra Eshnaev, Baxtiyor Arziev, Toshtemir Muhammadiev, YAxshiboy Qarshiev, Jabborquli Mahmudov, Husan Xudoy-berdievlar o'z vaznlariga ko'ra golib bo'lishdi.

O'sha unutilmas 1993 yilning 3 aprelida erta tongdan bayram libosiga burkangan Termiz shahrini karnay-sur-naylar sadosi tutib ketdi. SHahar xalqi

xayajon, shavq bilan uyg'ondi. Turnir boshlanishidan avval al-Hakim at-Termiziyning tarjimai holi o'zbek, rus, ingliz til-larida o'qib berildi.

Mazkur turnir g'oliblariga muzrabotlik tanikli tadbirkor Qurbon Amirqulov baxaybat ho'kiz sovg'a qxtldi. Bir kishi tuya yana bir kishi esa ot sovg'a qildi. Butun el, xalq saxiylik qildi.

Birinchii turnirga Respublikamizning barcha viloyat-laridan ko'plab tomoshabinlar kelishdi. Qarangki, ku-rashni tomosha qilmoq uchun birgina qo'shni Qashqadaryo viloyatidan bir necha ming muxlis keldi. Tojikiston, Turkmaniston va qo'shni Afgonistondan ham ko'plab pol-vonlar va tomoshabinlar tashrif buyurdilar.

Xalqning qiziqishini, o'yingohni limmolim to'lga-nini ko'rgan braziliyalik mexmonlardan biri shunday degan edi:

- Bizda faqat futbolga odam shunday ko'p keladi. Sizlarda esa kurashga haddan ziyod qiziqisharkan va ko'p ke-larkan. Bunday holni birinchi marta ko'rishim.

Turnir yakunida, o'yingox bo'ylab, avtomashinada g'olib polvonlar Vatanimiz — O'zbekistan bayrog'ini olib ay-langanlarida butun o'yingox axli ularni oyoqqa qalqib faxr bilan olqishladilar. Bu manzarani aslo va aslo unutib bo'lmaydi. Termiz shahrida bo'lib o'tgan dastlab-ki Xalqaro turnir milliy kurashimiz tarixida alohi-da bob, saxifa bo'lib qolajakdir.

3.3. IKKINCHI TURNIR

1995 yilning 8-9 aprel kunlari Vatanimizning ja-nubiy shahri Termiz yana bayram libosiga burkandi. SHu kunlari al-Xakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan milliy kurash bo'yicha an'anaviy II Xalqaro turnir bo'lib o'tdi. Aytish mumkinki, bu avvalgi turnirdan ham ko'ra qiziqarliroq ravishda bo'lib o'tdi. Bellashmoq va o'z kuchini namoyish etmoq uchun chor tarafdin zur povlonlar saralanib kelishdi. Turnir ochilish chog'ida ma'ruzachi-lardan biri hayajon bilan shunday degan edi: "Biz Dav-man, Karim, Qurbonmurod, Rahmon, Ismat, Alimardon, Tohir, SHafoat, O'rol, Rustam, Ergash kabi polvonlar bilan faxrlanamiz. Ularning nomlari allaqachon el og'zida doston bo'lib yuribdi".

Ikki kun davom etgan kurash damlari chuqur va unutilmas taassurotlarga juda boy bo'ldi. Xorazmlik San'atbek Odamboev, Erkin Xo'janiyozov, buxorolik Faxriddin Umarov, Erali YUsupov, Xayrullo Nasrul-laev, qashqadaryolik Odil Xushvaqto'v, Muhammaddust Toshev, Respublika ichki ishlar vazirligidan Vladimir SHmakov, Armen Bogdasarov, toshkentlik Kamol Murodov, Dmirtiriy Solov'ev, Buxorolik Said-akbar Mutinov, Jabborquli Mahmudov, Hasan Xudoyberdiev, Maxtumkuli Mahmudov, To'lqin Boltaev, Baxtiyor Arzievlar o'z vazn toifalariga ko'ra turnir g'oli-bi bo'lishdi. Turnirning mutloq g'olibligi uchun kurashlarda Buxorolik Rustam Ergashev birinchi, qash-qadaryolik Bahrom Avazov ikkinchi, termizlik Bahodir Hasanov esa uchinchi urinlarni qo'lga kiritishdi. Ayniq-sa, finalda zabardast ikki polvon - Rustam Ergashev va Bahrom Avazovlarning kurash tushishlari turnirning unutilmas onlaridan bo'ldi deyish mumkin. Ikki katta polvonning kurash tushishini butun o'yingohdagi tomoshabinlar diqqat bilan kuzatib turdilar. G'oliblik jar-qo'rg'onlik Rustam polvon Ergashevga nasib etdi. U Prezident sovrini "GAZ-Z1" yengil avtomashinasi sohibi bo'ldi. Ikkinchi o'rinni egallagan Bahrom Avazov esa Viloyat hokimi sovrini -bir ot, gilam hamda 200 AQSH dollari bilan mukofotlandi. Uchinchi o'rinni olishga muvaffaq bo'lgan Bahodir Hasanov tuya, gilam bilan taqdirlandi.

Kurash o'z nomi bilan kurash. Unda qiziq holatlar ham yuz beradi. YAshirib nima qilamiz, ayrim holatlar-da nomardliklar ham yuz berdi. Bir gal tashkiliy qo'mita ishi-ga aralashib yurganlardan biri yonimizga kelib shunday taklif qildi: "Falon polvonga tuyani, falon lolvonga otni beringizlar". Tabiiyki, biz uning bu taklifini qabul qilmadik.

Turnirga bag'ishlab chiqarilgan chiroyli plakatlar, Termiz shaxrining tasviri tushirilgan nishonlarni dukan-larda sottirgan ayrim "tadbirkor"lar ham bo'ldi.

Balki esingizdadir: dastlabki turnirlardan biri-da xorazmlik murabbiylardan biri xakamlik qildi. Maydonda esa xorazmlik polvon kurash tushardi. Gapiing rosti, u mahorat bilan kurashayotgan edi. Xullas, xorazmlik polvon katta ustunlik bilan raqibining kuragini erga tekkizdi. Bunday xolda hakamlik qilayotgan kishi Odamboy polvonning g'olib chiqqanligini qo'li bilan ishora etib, ma'lum qilishi

kerak. Qizig'i shundaki, xorazmlik hakam esa quvonganidan o'zini uiutib, qo'lini baland ko'targancha davrani aylanib ketdi. Bir qarasangiz, bu holat raqsga ham o'xshardi. Xakam bu harakatlari bilan o'z viloyatidan kelgan polvonga juda xayrixoxligini, uning g'alabasidan 6ag'oyat xursand ekanligini o'zi bilmagan xolda namoyon qila-yotgan edi.

SHuni ta'kidlash o'rinli bo'lardiki, II Xalqaro tur-nirni o'tkazishga avvalgidan xam ko'ra jiddiy tayyorgarlik ishlari ko'rildi. Masalan, turnir g'oliblari uchun medallar, nishonlar, shuningdek, milliy hunarmandchilik san'atimiz namunalari, yilnomalar, vimpellar, taklifnoma va boshqa bir qator maxsus atributlarni tayyorlash uchun nashriyot, zavod va to'quv fabrikalariga buyurtmalar berildi.

Milliy kurash qoidalariga va talablariga javob be-radigan milliy kurash kiyimi va xakamlilik libosi Termiz tikuv fabrikasida maxsus tayyorlanib, milliy kurash tarixida birinchi marotaba barcha turnir ishtirokchilari, hakamlar maxsus kiyimlar bilan bepul ta'minlandi. Turnir milliy kurash kiyimida o'tkazildi.

YAna bir narsa: viloyatda xalqimiz sevgan milliy kurashning ommaviyligini oshirish, rivojlantirish yo'li bilan yoshlarning sportga bo'lgan ixlosini kuchaytirish, kurash bilan shug'ullanuvchilar sonini ko'paytirish va sog'lom avlodni tarbiyalash maqsadida turnir oldi mu-sobaqalarini uch bosqichda o'tkazish puxta amalga oshirildi. YA'ni maktablarda, o'quv yurtlarida, jamoa xo'jaliklarida va tashkilotlar orasida, ikkinchi bosqich shahar, tumanlar miqyosida, uchinchi bosqich esa viloyat polvonlarini saralash musobaqalarini o'tkazish bilan II Xalqaro turnirga tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi. Turniroldi birinchi, ikkinchi, uchinchi bosqich musobaqalarida viloyatimiz bo'yicha 500 ming nafarga yaqin turli yoshdagi polvonlar rosa olti oy mobaynida kuch sinashdilar. Musobaqa qatnashchilarining eng yoshi kichigi 10 yoshda edi.

Turnir oldi bosqich musobaqalarini tashkil etish va uyushqoqlik bilan o'tkazishda shahar, tuman xokimlari rahbarligida tashkilotlar, korxonalar hamkorligida viloyat xalq ta'limi boshqarmasi, uning joylardagi bo'limlari, sport tashkilotlari faollik ko'rsatishdi.

Viloyat polvonlarini saralash uchinchi bosqich musobaqasini Jarqo'rg'on tumani xokimligi tashkilotlar, korxonalar hamkorligida sarf-harajatlarni to'liq o'z zimmasiga oldi va bellashuvlarni ko'ngildagidek o'tkazishni tashkil etdi. Jarqo'rg'on tumanidagi "Paxtakor" o'yingoxi ikki kun davomida qizg'in bellashuvlar bilan obod bo'lib turdi.

Turnir oldi uchinchi bosqich natijasiga ko'ra saralan-gan viloyat terma jamoasi tarkibi 20 kun davomida Termiz shaxrida malakali murabbiylar jalb qilingan xolda polvonlarning o'quv-tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tka-zildi.

Nihoyat, 8-9 aprel kunlari Termiz shaxrida II Xalqa-ro turnir musobaqasi 225 nafar polvon ishtirokida o'tka-zildi. Kurash olti vazn toifasida bo'ldi va turnirning mutloq chempionati o'tkazildi. Mutloq chempionat uchun 38 nafar sara polvon o'zaro kuch sinashdi.

Turnir musobaqasida qo'shni Turkmaniston, Tojikis-ton respublikalaridan 47 nafar, mamlakatimiz viloyat-laridan 1124 nafar sara polvon, viloyatimizdan esa 55 nafar polvon ishtirok etishdi. O'tkazilgan turnir qat-nashchilarining tarkibi nixoyatda kuchli bo'lib, unda 14 nafar polvon Xalqaro miqyosdagi sport ustalari, 88 nafar polvon sport ustasi, 93 nafar polvon sport ustali-giga nomzod va 30 nafar polvon 1 - darajali sportchilar edi. Musobaqa qatnashchilaridan 187 nafari 25 yoshgacha, 38 na-fari esa 35 yoshgacha bo'lgan polvonlar bo'lganligi xam e'tiborga loyiqdir.

II Xalqaro turnirni o'tkazishda 32 kishi o'akamlik qildi..Mandat komissiyasi tarkibida 6 kishi ish olib bordi. 50 nafardan oshiqroq hakam musobaqa oldidan ikki kunlik o'quv-seminaridan o'tkazilib imtihon qilindi. Imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan 32 nafari-ga musobaqada hakamlik qilishga ruxsat berildi.

Viloyatimizda o'tgan Xalqaro turnirda sherobodlik polvon Qahramon Boltaev bilan rossiyalik polvon maydonga tushdilar. SHunda rus polvonining qo'li raqibidan bir oz baland kela boshladi. Biroq xakamlar ozroq xatoga yo'l qo'yib, Qaxramon polvonning yonini ola bosh-ladilar. SHu paytda qiziq xolat yuz berdi. Kutilmagan-da chiroyli kurash tushayotgan rus polvoniga butun o'yin-goh - barcha tomoshabinlar xayrixox bo'lishdi. Xalq qattiq turib olgach, hakamlar g'alabani rus polvoniga

berishga majbur bo'ldilar. CHunki rus polvoni chindan xam zo'r edi. Ana shu polvon Rossiyaga qaytib borgach, televidenie muxbirlariga interv'yu beradi. Ko'zlariga yosh olib, o'zbek xalqining, Buxoroliklarning, muxlislarning mardligi va tantiligini ro'y-rost aytadi.

O'zbek milliy kurashi nima uchun butun dunyoda dovruq qozonmoqda? Nega uning nufuzi tobora ortib borayotir? CHunki bu kurash mardlarning, botir va xalol odamlar-ning kurashidir. Uning shunday ekanligini amalda isbotlayotganimiz uchun xam mavqei jaxrnga yoyilmoqda.

Milliy kurash shundayki, qancha polvon bo'lsa, shuncha kurash usuli, san'ati ham bor deb aytish mumkin. Polvonlardan har birining o'ziga xos, boshqalarga o'xsha-maydigan kurash uslublari, harakatlari borki, aksari-yat xollarda buni boshqalar takrorlay olmaydilar. Pol-vonlik nozik san'at, katta mahorat, kuch, hiyla, chaqqon-lik dovyuraklik halollik kabi xislatlarni talab etadigan ishdir.

O'zbek milliy kurashining o'ziga xos usullari mavjud bo'lib, ularni polvonlar turlicha vaziyatlarda qo'llaydi-lar. SHulardan biri "to'g'anoq" degan kurash usuli. Bunda raqibni xuddi elkaga oladigandek sudrab ketaveradi. Payt poylab boraveriladi va banog'oh oyog'iga chil berib, orqaga itariladi. SHu tariqa g'alabaga erishiladi. Agar bilsan-giz, shu usulni Baxrom Avazov puxta egallagan.

CHori polvon Boboniyozov vaqti-zamonida "yonbosh", "ucha", "qoqma"ni rosa joyiga qo'yib kurash tushardi. SHafoat polvon SHomurodov rahmatli 100-120 kilo vazn-dagi polvonlarni ham ikki engidan mahkam ushlab elkasidan oshirib, uloqtirib yuborar va g'olib chiqardi. Ra-jab polvon Xudoyqulov raqibini yugurtirib (teskari) "qoqma"ga olardi. SHu usul unga kup g'alaba keltirardi. Boboxon polvon Xudoyberdiev "o'rama" yoki "boypechak" degan usuli bilan raqibini oson mag'lubiyatga uchratardi.

Termizlik Jo'ra polvon Safarovning elkadan oshirib otishlari zo'r-zo'r raqiblarini, dovrug'li polvonlar-ni ham dogda qoldirardi. U elkadan oshirib otishga qulay kelsa, har qanday katta, moxir polvonlarni ham yashin tezligida yulduz sanatadi.

Alman polvon Valiev elka, "ucha" usuliga usta bo'lib, elkadan oshirib otishga kelganda tengi yo'q. polvon sifatida tilga tushdi.

Keksa polvonlarimizdan biri Jo'ra Pirnaev "qaytarma" usulini shu qadar mahorat bilan ishlatdiki, o'zbek kurashida bu usulni boshqa biror-bir polvon keyinchalik xam takrorlay olmadi. Bu usulni "Jo'ra Pirnaning o'rog'i" xam deyishardi.

Oltinsoylik Ismat polvon Davlatovning hayoti afsonalarga qorishib ketgan. Bu polvon ham "o'rama", "tuyachil" usullarining eng zo'r ustalaridan biri edi.

Milliy kurash nafaqat jismoniy kuch ishlatish, mahorat, mardlik, dovyuraklik san'ati, balki u odob maktabi xamdir. Bunga uzoq va yaqin tariximizdan misollar juda ko'plab topiladi. Keling, uzoqqa borib o'tirmayliq Katta yoshdagi odamlar yaxshi biladilarki, Jo'ra polvon Sa-farov, marhum SHafoat polvon SHomurodov, Toxir polvon Durdievlar polvonlik odobiga, kurash odobiga qattiq rioya qildilar. Buni butun el biladi, muxlislar bi-ladilar. Kuchi etmasdan mag'lub bo'lganlar goxida chiday olmasdan Tohir polvonni so'kkan paytlarini xam bila-miz. Lekin Tohir polvon undaylarga hattoki, qayrilib ham *qaramas*, "miq" ham etmasdi. Nomard, buning ustiga ro'y-rost mag'lubiyatga uchragan raqibi bilan tillashib yotishni u o'ziga aslo ep bilmas edi. Nazarimizda, Tohir polvon rahmatlining boshqa polvonlardan ustunligi va farqi xam xuddi ana shunda edi. U o'z g'azabini, jaxlini jilovlay oladigan zo'r polvon edi. Aslida jismoniy kuchi bexisob bo'lgan odam xam zo'r sanaladi. Lekin unutmangki, jaxlini, bemavrid bostirib kelgan g'azabini jilovlay olganlarga kuchli polvon xisoblanadi.

Xullas, II Xalqaro turnir musobaqalari yana "Allomish" o'yingohida o'tkaziladigan bo'ldi. SHu munosabat bilan Ter-miz shahar hokimligi quruvchilarni va kerakli tashkilot, korxonalarni jalb qilib, o'yingoxning to'liq va sifatli ta'mirlanishiga bosh-qosh bo'ldi. Kurash saxna-si o'rnatildi, o'yingox bayramona bezatildi. SHaharning markaziy maydonlariga, ko'chalariga, jamoat joylariga pannolar, shiorlar, transparentlar o'rnatildi. SHahar oshxonalari, mehmonxonalari mexmonlarni qabul qilish uchun shay xolga keltirildi.

II Xalqaro turnirga tayyorgarlik va musobaqa o'tish ja-rayonini respublika xamda maxalliy ommaviy axborot vo-sitalari doimiy ravishda, faollik bilan targib-tashviq qilib borishdi.

Turnirning osoyishta va xotirjam o'tishi, jamoat tar-tibini saqlashda viloyat ichki ishlar boshqarmasi xodim-lari astoydil mehnat qildilar. SHuningdek, tabbiyot xiz-mati, savdo, aloka va madaniy xizmat ko'rsatish soxalari ikki kun davomida chindildan ish olib bordilar.

Turnirni yuqori saviyada o'tkazish maqsadida viloyat xokimligining 1995 yil 20 yanvardagi 12-F sonli farmoyishiga asosan, bir qator tashkilotlar, korxonalar, xo'ja-liklar, shaxslar qo'llab-quvvatlashib, al-X.akim at-Termi-ziy jamg'armasiga moddiy xamda moliyaviy hissa qo'shihsti.

Alqissa, Termizda o'tgan II Xalqaro turnir xam o'zbek milliy kurashi tarixida o'ziga xos yorqin saxifalar-dan biri bo'lib qoldi.

3.4. UCHINCHI TURNIR

1997 yilning 5-6 aprel kunlari III Xalqaro turnir mu-sobaqalari Termiz shahridagi "Alpomish" o'yingoxida bo'lib o'tdi. Bu galgi turnir avvalgilaridan ko'ra katta tay-yorgarlik, uyushqoqlik va ahillik bilan tashkil etildi. O'yingox tomoshabinlar, muxlislar bilan to'lib-toshdi.

Turnirni o'tkazish tashkiliy qo'mitasi III Xalqaro turnirni yuqori saviyada, jaxon talablari darajasida tashkil etish xamda o'tkazish maqsadida aniq tadbirlar ishlab chiqdi. Barcha ishlar reja asosida tashkil etildi.

Turnir oldi birinchi, ikkinchi, uchinchi bosqich muso-baqalarida viloyatimiz bo'yicha besh oy davomida 300 ming nafardan oshiqroq turli yoshdagi polvonlar maydonlarda o'zaro kuch sinashdilar.

Turnir oldi bosqich musobaqalarini tashkil etishda shahar, tuman xokimlari raxbarligida tashkilotlar, korxonalar xamkorligida viloyat xalq ta'limi boshqar-masi, "sport tashkilotlari", "Kamolot" yoshlar ijtimoiy xarakatining bevosita ishtirokida o'tkazildi.

Viloyat polvonlarini saralash III bosqich musobaqasi 8-9 mart kunlari Angor tumani xokimligi, tumandagi tashkilot, korxona, jamoa xo'jaliklari hamkorligida tuliq sarf-xarajatlarini o'z zimmasiga oldi va yuqori saviyada o'tkazishni tashkil qildilar. Angor tuman mar-kaziy o'yingoxi ikki kun davomida polvonlar va muxlislar bilan gavjum bo'ldi.

Turnirol di III bosqich musobaqasi natijasiga ko'ra viloyat terma jamoasi tarkibi 25 kun davomida mala-kali murabbiylar jalb qilinib, polvonlarning o'quv-tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tkazildi. Viloyatimiz pol-vonlari o'n kun mobaynida Toshkent shaxrida YAponiya terma jamoasi bilan tayyorgarlik mashg'ulotlarida ishtirok etishdi.

Nixoyat, 5-6 aprel kunlari Termiz markaziy o'yingo-xida III Xalqaro turnir musobaqasida 275 nafar polvon 6 vazn toifasida kurashishdi. 50 nafar polvon mutloq chempionat bellashuvlarida ishtirok qildi. Turnir musobaqalarida Turkmaniston, Tojikiston. Gurjiston, Janubiy Koreya davlatlaridan, shuningdek, mamlakatimizning deyarli barcha viloyatlaridan polvonlar qatnashdilar. Bu galgi o'tkazilgan turnir qat-nashchilarining tarkibi nixoyatda kuchli bo'lib, unda 3 nafar sportchi olimpiada ishtirokchisi, 1 nafar polvon olimpiada chempioni, ikki marotaba jaxon chem-pioni, olti marta Evropa chempioni, 10 nafar sportchi jaxon chempionatlari ishtirokchisi xamda sovrin-dorlari, 32 nafar sportchi Xalqaro turnirlar g'olib-lari va sovrindorlari, 20 nafar sportchi Xalqaro to-ifadagi sport ustalari, 125 nafar sport ustalari, qolganlari sport ustaligiga nomzod bo'lgan polvonlar edilar.

Turnimi o'tkazishda 40 kishi xakamlik qildi. 5 kishi maxsus xakamlar faoliyatini nazorat qilish qo'mitasi, 6 kishi tarkibida mandat komissiyasi ish olib bordi. Dar-voke, turnirni yuqori saviyada xalol va pok o'tkazish maqsadida bizning taklifimizga asosan, 1997 yil 25 mart kuni Toshkent shahrida Respublika Davlat sport qo'mitasi xam-da Respublika milliy kurash federatsiyasi raxbarligida, malakali mutaxassislar ishtirokida III Xalqaro turnir-ga xakamlik qilish xuquqini beruvchi o'quv-seminar o'tkazildi. Unda viloyatimizdan 15 kishi ishtirok etdi.

Tashkiliy qo'mita, Respublika Davlat sport qo'mitasi xamda Respublika milliy kurash federatsiyasi qarori bilan turnirning bosh xakami etib Komiljon YUsupov, bosh kotib etib Avliyoqul Qurbonov tasdiqlandi. Bosh hakam rahbarligida xakamlar guruxi turnir musobaqa-sining yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minladilar.

Yana bir narsa: al-Xakim at-Termiziy jamg'armasi-ni moddiy va moliyaviy qo'llab-quvatlash maqsadida III Xalqaro turnirga bag'ishlangan maxsus lotoreya tashkil etildi.

III turnirda 60 kilogramm vaznda San'atbek Adam-boev (Xorazm), Farxod Xo'janov (Qashqadaryo), Baxodir Toshnazarov (Qashqadaryo), 66 kilogramm vaznda Qurbon-nazar Mahmasoatov (Turkmaniston), Fayzullo Mahma-raimov (Jizzax), Olimjon Maxmanazarov (Samarqand), 73 kilogramm vaznda Maxtumquli Maxmudov (Surxon-daryo), Davlatgeldi Bekjonov (Buxoro), Elbek Ori-pov (Qashqadaryo), 81 kilogramm vaznda Isoq Axmedov, Xolnazar Xolmirzaev, Qaxramon Boltaev (Buxoro), 90 kilogramm vaznda SHuxrat Xo'jaev (Buxoro), Ilxom Daminov (Buxoro), Kamol Murodov (Toshkent), 90 kilogrammdan yuqori vaznda Erali Maxmarasulov (Buxoro), Alisher Sobirov (Xorazm), Botir Hasanov (Buxoro)lar kurash tushib, o'zlarining maxoratla-rini namoyish qildilar.

Bu gal xam mutloq g'oliblik uchun kurash shiddatli tar-zda kechdi. Kurash muxlislari mutloq g'olibni ko'rmoq ishtiyoqida o'yingoxni guvillatib turardilar. Bunday paytda xakamlarning mas'uliyati yanada oshganligini kuzatish mumkin edi. Denovlik polvon Erali Maxmara-sulov zo'rlardan-da zo'r chiqib, mutloq g'oliblikni qo'lga kiritdi. Mutloq g'olibga Prezident sovrini - "Neksiya" engil avtomashinasi berildi. Ikkinchi o'rinni olgan boysunlik polvon Toshtemir Muxammadievga viloyat xokimi sovrini - "Damas" engil avtomashinasi, uchinchi o'rinni olgan qashqadaryolik polvon Muhammaddust Toshevga viloyat "Kamolot" yoshlar ijtimoiy xarakati sovrini - "Tiko" engil avtomashinasi taqdim etildi.

3.5. TO'RTINCHI TURNIR

1999 yilning avji bahori, ya'ni 3-4 aprel kunlari Ko'xna Termiz shaxrini yana chor tarafdin kelgan mexmon-lar, nomdor polvonlar, minglab kurash muxlislari

to'ldirdilar. YAna "Alpomish" o'yingohiga odam sig'may ketdi. Aprelning shanbasi va yakshanbasi unutilmas bay-ram shukuxiga burkandi.

3 aprel kuni al-Hakim at-Termiziy xotirasiga ba-g'ishlangan an'anaviy IV Xalqaro kurash turnirini Buxoro Viloyat xokimi, Viloyat milliy kurash xudu-diy federatsiyasi raisi Jo'ra Noraliyev tantanali ra-vishda ochdi. Xalqaro kurash assotsiatsiyasi prezidenti K.YUsupov, Armaniston olimpiada qo'mitasi prezidenti A.Avitsyan, Litva kurash, dzyu-do federatsiyasi prezidenti Aintes Vileyko, Litva kurash sport maktabi direktori Avgenyus Misyunes, Xalqaro kurash assotsiatsiyasi kotibi Maykl Begoshevskiylar so'zga chiqib, turnir qatnashchilarini, barcha muxlislarni muborakbod qildilar.

Davlatimiz madqiyasi sadolari ostida dovrugli polvonlar turnir bayrog'ini ko'tardilar.

Turnir musobaqalarida jami bo'lib 99 nafar sara polvon o'zaro kuch sinashdilar.

SHuni aloxida ta'kidlash lozimki, final uchrashuv-lari g'oyatda qizg'in kechdi. 73 kilogramm vaznda Maxtumquli Maxmudov va Akobir qurbonovlar maydon-ga tushib xal qiluvchi kurashga kirishdilar. Bu gal g'a-laba yo'liga chiqish ko'p qiyin bo'ldi. Har ikkala polvon xam garchand shiddat bilan kurash tushsalar-da, extiyotkorlik bilan xarakat qilardilar. CHunki an-dakkina xato barcha qilingan mexnatni chippakka chi-qarishi mumkin edi. Va nixoyat, Maxtumquli polvon g'olib chiqdi.

90 kilogramm vaznda Baxrom Avazov va SHuhrat Xo'ja-evlar xal qiluvchi bellashuvga kirishdilar. Bahrom polvonning qo'li baland keldi. So'ngra esa 90 kilogrammdan oshiq vazndagi ikki polvon, butun mamlakatga ardoqli bo'lgan Toshtemir Muxammadiev va Erali Maxmarasulovlar o'rtaga tushdilar. Barcha muxlislar, xakamlar-ning nigohi, e'tibori ularga qadaldi. Zafar Toshtemir polvonga kulib boqdi.. G'olibni butun maydon olq-ishladi.

SHunday qilib, 73 kilogramm vaznda birinchi urinni egallagan Maxtumquli Maxmudov viloyat "Kamolot" yosh-lar ijtimoiy xarakatining "Tiko" engil avtomashina-si, 90 kilogramm vaznda birinchi o'rinni olgan Bax.rom Avazov viloyat xokimligining "Damas" engil avtomashi-nasi bilan va nixoyat, 90

kilogrammdan yuqori vaznda maydonga tushib, zafar topgan Toshtemir Muxammadiev O'zbekistan Respublikasi Prezidenti sovrini - "Neksiya" engil avtomashinasi bilan taqdirlandilar. SHuningdek, har uchala g'olib polvonga turnirning diplomlari ham topshirildi.

Yana bir muxim narsani ta'kidlash kerak: obro'-e'ti-bori tobora yoyilib borayotgan mazkur turnirga Osiyo chempionati maqomi berilgan. Ana shunga ko'ra finalda g'olib chiqqan uch nafar polvon ayni bir paytda Osiyo chem-pioni degan nomga sazovor bo'lishdi.

SHuningdek, bu turnir va Osiyo chempionatida o'z vazn toifalarida buxorolik Xayrulla Nasrullaev, SHuhrat Xo'jaev, Buxorolik Botir Hasanov, Erali Maxmarasulov, toshkentlik Armen Bogdasarov, Akobir Qurbonov, Kamol Murodov, qashqadaryolik Elbek Oripov, Nodirxon Muzaffarovlar sovrindor o'rinlarni egallashdi.

Avvalgi uchta turnirdan xam ko'ra IV Xalqaro turnir tartibli kechdi. Turnirning birinchi kuni o'yingox-dagi ayrim o'rindiklar bo'sh turgan bo'lsa, ikkinchi kuni minglab tomoshabinlarga o'tirish uchun xattoki joy xam tegmadi.

Viloyat xokimi muovini, turnirni o'tkazish tashkiliy qo'mitasi raisi Q.Ahmedov shunday dedi:

- Viloyat hokimi qarori bilan turnirni o'tkazish uchun mablag jamlash maqsadida viloyat miqyosida shanbalik o'tkazildi. Natijada qirq million so'mlikdan ortiq mablag yigildi. Bundan tashqari qator tashkilotlar, korxo-nalar, shuningdek ayrim shaxslar xam turnir jamg'arma-siga o'z ulushlarini qo'shdilar. Eng qiziqarlisi ko'plab dexqonlar bog'larida etishtirgan anor, olma va limon kabi mevalarini qoplab keltirib polvonlarga ulashdilar.

Ha, har qanday yukni ham xalq ko'taradi, yaxshi ish-larning boshida xalq turadi. Fuqarolarimiz xayrli ishlarga xamisha ahillik bilan bosh qo'shib kelishgan.

IV Xalqaro turnir musobaqalarini kattalar bilan bir qatorda xali suyagi qotmagan minglab yosh tomosha-binlar xam katta xayajon bilan ko'rdilar, diqqat bilan kuzatdilar. Ularning xar birining qalbida kurashga, boringki, sportga ishtiyoq uyg'ongan bo'lsa ne ajab. Ikkinchidan esa, xalq o'zining sara polvon farzandlarini

tanidi, bildi. Yana bir saboq shuki, qat'iyatli, diyonat-li muxlis-tomoshabinlar ko'p o'rinlarda xalolu g'irrom-ni farqlashda xakamlarga yordam xam berib turdilar.

Bu ikki kundan yorug' manzaralar, tanish qiyofalarning yorug' nigoxlari, maydonda shiddat bilan kurash tushgan, or talashgan yo'lbars monand polvonlarning shamoldek tezkor harakat qilishlari, raqibga tik boqishlari, maydondagi o'g'illar o'miga goxo otalarning umidli va alamli turish-lari qoldi.

Ikki kun... Polvonlar kuch sinashib vaqtni bexuda o'tkazmadilar, balki tik turib kurashdilar. Mardlar-ga, chinakam botirlarga xos usullar bilan bellashdilar. Xalq esa g'oliblarni xolislik bilan olqishlarga burkadi. Mag'lublarni esa... er ko'tardi. G'oliblarning oldida xali og'ir sinovlar, mag'lublarning oldida esa balki ajoyib, katta g'alabalar turgandir. Odamning shunga ishongisi keladi. CHunki odamni goxida alam va mag'lubiyatlar xam ulg'aytiradi, katta kurashlarga chorlaydi.

Mardlar olishmaydi, siltab otadi..." deganlarideq Elimizning ardoqli dostoni, xalq og'zaki ijodiyotining gultoji sanalgan mashhur "Alpomish" dostonidan bir par-chani keltiramiz.

"...O'n ming uyli Qo'ng'irod odami, qancha qalmoqning odami yig'ilib, CHilbir cho'liga, Oyna ko'liga tomoshabin bo'lib, rasta-rasta, dasta-dasta qur tortib o'tirdi. Tomo-shabinlar: "Kurashni ko'ramiz. Toychixonning alii, Qo'ng'irotdan kelgan o'zbeklarning alpi kurash qiladi, kurash qiziq bo'ladi, kurashda qaysisi zo'rlik qilsa, o'zbakning qizini oladi", deb bari jam bo'ladi...

SHunda qalmoqliklarga bo'yin egib, Qorajon Alpo-mishga: "Kurashga tush desant, tushaman, lekin tushganim bilan omon kolmayman. G'ayrating bo'lsa o'zingni ko'rsat endi" dedi. Alpomish: "Unday bo'lsa, kurashganim bo'lsin", dedi. Bu gap-so'zlarni eshitib turgan Qo'ng'irodning qizla-ri orasida Barchin kanizlari bilan tomosha qshshb, bu gap-so'zlarni eshitib, Hakimbek (Alpomish)ga qarab, 'Menga navbat bering, o'zim kurashga chiqay", deb bir so'z aytib turgan ekan:

Ochilar baxorda bog'larning guli,
Gulni ko'rsa mast bo'p sayrar bulbuli.
Nar-moda bo'libsiz boy bobom uli,

Yiqolmasang, bizga bering navbatdi,
 Juda keldi Barchin yorning g'ayrati,
 Ushlaganda ko'kka otmay ne bo'pti?
 Yiqolmasang, to'ram navbat tilayin,
 Erkak libosini o'zim kiyayin.
 Bor kuchimni bilagimga jiyayin,
 Bu qalmoqni pora-pora qilayin.
 Qalmoq bilan, jonim, bo'lding barobar,
 Sizni juda mazax qilar kanizlar.
 Bu qalmoqni ko'kka otsang ne bo'lar?
 Ochilar baxorda bog'larning guli,
 Gulni ko'rsa mast bo'p sayrar bulbuli.
 Nar-moda bo'libsiz boy bobom uli,
 Yiqolmasang, bizga bering navbatdi,
 Juda keldi Barchin yorning g'ayrati,
 Ushlaganda ko'kka otmay ne bo'pti?
 Yiqolmasang, to'ram navbat tilayin,
 Erkak libosini o'zim kiyayin.
 Bor kuchimni bilagimga jiyayin,
 Bu qalmoqni pora-pora qilayin.
 Qalmoq bilan, jonim, bo'lding barobar,
 Sizni juda mazax qilar kanizlar.
 Bu qalmoqni ko'kka otsang ne bo'lar?
 Ish ko'rsatsang mening ko'nglim topilar,
 Bu so'zlarni Barchin suluv aytadi,
 Barchinoyga navbat bergin, netadi.
 Menday oyim ushlab ko'kka otadi, .
 Qizlar sizni nar-moda deb aytadi,
 Qizlarning aytgani menga botadi.
 Mardlar olishmaydi, siltab otadi,
 Maydon bo'lsa, ish ko'rsatib ketadi.
 Bo'sh odamning ishi keyin ketadi,
 Barchinoyning bunday ko'nglin bo'lmagin,
 Bu so'zimni, xonim, og'ir olmagin,
 Navbat bergin, sira gina qilmagin,
 Maydon kunda senga hamdam bo'layin.

3.6. BESHINCHI XALQARO TURNIR

O'zbekiton Respublikasi Prezidenti sovrini uchun Al-Xakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan V Xa-lqaro kurash turniri odatdagidek ko'klam faslida 2001 yilning 2-4 aprel kunlari Termiz shahrida bo'lib o'tdi. Maktab, o'quv yurtlari, tuman va shaxarlarda turnir oldi saralash musobaqalari faollik bilan olib boril-di. YUzlab polvon yoshlar saralash bosqichlarida o'zaro kuch sinashdilar. Turniroldi viloyat saralash bosqich-larida o'z vazn toifalariga ko'ra A.Najimov» A.Ro'ziev, M.Eshqoraev, B.Maxmudov, T.O'taev, B.Rustamov, Z.Ma-manazarov, Z.Bo'riev,

M.Maxmudov, B. G'oziev, Rahmatul-laev, O.Xudoyqulov, B.Eshonqulov, SH.Mo'minov, Z.Max-marasulov, F.Ochilov, I.Daminov, SH.Ashurov, T.Rajabov, B.Mengniyozov, I.Maxanov, B.Qobilov, M.Qurbonov, R.Ergashev, A.Bakirov, X.Ziyovuddinov, B.Jaxanov golib xamda sovrindor bo'lishdi. So'ngra bu polvonlar V Xalqaro turnir bellashuvlarida xam o'z mahoratlarini namoyon etadilar.

Turnir musobaqalariga tajribali, xalol va o'z ishini yaxshi biladigan sportchi mutaxassislardan hakamlar xay'ati tuzildi. Termizda utgan Xalqaro turnirga mamlakatimizning deyarli barcha shaxar xamda viloyatlaridan moxir sportchi-mutaxassislar hakamlik qilishdi. Masalan, tosh-kentlik A.Ziyaev, O.Xayitov, R.Muhametov, farg'onalik R.Olimov, andijonlik YU.To'ychiev, navoiylik T.Xayitboev, samarqandlik I.Karimov, buxorolik Y.Azizov, qashqa-daryolik B.Sattorov, YU.Qilichev, jizzaxlik A.Tilakov, Buxorolik J.Toshpo'latov, Q.Ergashev, SH.Rahimov-lar kurashning xalol baxolanishini ta'minladilar.

E'tirof etish kerakki, V Xalqaro turnirga kelib viloyatda katta tajriba va malaka to'plangan edi. Qadimiy Termiz takror bayram libosiga burkandi. Odamlar yana bir necha kunlar Xalqaro turnir voqealari taassuroti bilan yashadilar. Turnir bellashuvlari mayda-katta davralarning gurungida asosiy mavzu bo'lib turdi. V turnirning e'tiborga molik yana bir jihati shundaki, bu galgi musobaqalarda yangi-yangi polvonlar xam o'z maxoratlari, kuch-quvvatlarini namoyish etdilar. Agar turnirda qatnashgan polvonlar ro'yxa-tiga ko'z yugurtirganimizda xam bunga ishonch hosil qilishimiz mumkin. Turnirda o'z vazn toifalariga ko'rag'olib chiqqanlar safida Buxorolik Suhrob Do'stov, Maxtumquli Maxmudov, To'lqin Valiev, Baxrom Eshonqulov, Ilhom Daminov, Fayzi Ochilov, Davlat Choriev, Abdulla Tangriev, Erali Maxmarasulov, jizzaxlik Akrom Abdulaxatov, toshkentlik Umid Bozorov, Salim Asilov, Laziz Qobilov, qashqadaryolik Isoq Axmedov, Bahrom Avazov, Zohid Xusanov, Nodirxon Muzaffarov, buxorolik Rustam Otaev, SHuhrat Xo'jaev, shuningdeq turkmanistonlik Rajabboy Ashurov, braziliyalik Aleksandr Kostrugilar bor edi. Ular "Alpomish" o'yingoxini liq to'ldirib turgan tomoshabinlarga kurash bobida ajoyib tomoshalar

ko'rsatdilar, muxlislarni chindan-da xursand qildi-lar. Ikki kunlik bellashuvlar, xis-xayajon xalqimiz-ning xalol, pok Milliy kurashga naqadar muxlis va tashna ekanligini takroran namoyon qildi.

Turnir esda qolarli bir xolatda boshlandi. O'zbekis-ton davlati bayrog'ini jaxon chempionlari Bahrom Avazov, Maxtumquli Maxmudov, olis Braziliyadan turnirga kelgan polvon Aleksandr Kostrugilar ko'tarishdi. So'ngra davlat madxiyasi tantanali ravishda yangradi. Qalblar Xayajonga limmo-lim to'ldi.

So'ngra respublika davlat jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari Abdulla Ochilov, Xalqaro kurash assotsiatsiyasi raisi Komiljon YUsupov, Xalqaro kurash assotsiatsiyasi xakamlar xa'yati raisi, afrikalik Syuzet xonimlar so'zga chiqib o'zbek milliy kurashining sharofati, uning dunyo bo'ylab tan olinayotga-ni xususida tulqinlanib gapirishdi.

V Xalqaro turnirga mamlakatimizning barcha vilo-yatlaridan hamda Tojikiston, Qozogiston, Armaniston, Turkmaniston respublikalaridan, shuningdek, Braziliyadan xam katta polvonlar kelishdi. Ikki yuz nafardan ziyod sara polvon turnir musobaqalarida ikki kun davomida o'zaro kuch sinashdilar. YAna bir e'tiborli tomoni shun-daki, bu galgi turnirda 26 nafar eng yosh polvonlar ham gi-lamga tushib, kurash sinoatlaridan bahramand bo'ldilar. YOsh polvonlar baxsini braziliyalik xakam Jozef Fisher boshqarib bordi. Aytish kerakki, bu galgi bellashuvlarda termizlik Suhrob Do'stov o'zining chinakam tajribali polvon ekan-ligini ro'y-rost namoyon qildi. U yarim finalda qozog'istonlik Zarif Bozorovni osonlik bilan enga oldi. So'ngra turkmanistonlik polvon Rajabboy Ashurovni xam mag'lubiyatga uchratdi. Braziliyadan kelgan yagona polvon Aleksandr Kosturugi muxlislarni chinakamiga xursand qildi. O'zbek milliy kurashi xadisini bu qadar yaxshi egallagan xorijlik polvonga tomoshabinlar xam, xakam-lar, mutaxassislar xam astoydil tan berishdi. 73 kilogramm vazndagi bu polvon turnirning ikki kunida xam charchash, toliqish nima ekanligini bilmadi. SHiddat bilan kurash tushdi. Kurashning dastlabki kuni u o'z ixtiyo-ri-xoxishi bilan 81 kilogramm vazndagi polvonlar bilan maydonga tushishga rag'bat bildirdi. U navoiylik Odil Allaev, farg'onalik Arslon Bobonazarovlarni ko'p qiynalmasdan mag'lubiyatga uchratdi. Final bellashuvla-rida esa Aleksandr

Kosturugi qashqadaryolik mashxur polvon Isoq Axmedovga qarshi kurashga chikdi. Bu ikki polvonga eronlik Rizo Nosiriy xakamlilik qildi. Aleksandr avvaliga Isoqni yiqitib, "chala" bahosini oldi. O'yingohni to'ldirib turgan xalq uni tik turib olqishladi. Lekin Isokq xam raqibidan kam emasdi. Qolgan vaqt Isoqning ustunligida o'tdi. Bellashuv yakunlanishiga sa-noqli soniyalar qolganida Isoq raqibini "yonbosh" bahosi bilan engdi. Finalda Isoq polvonga samarqandlik Rustam Atoev yuzma-yuz keldi. Bu gal Isoq raqibini tez-korlik bilan mag'lubiyatga uchratdi.

90 va 100 kilogramm vazndagi polvonlarning o'zaro bellashuvlarida o'zbek kurashi bo'yicha ikki marta jaxon chempioni Bahrom Avazov, buxorolik SHuxrat Xo'jaev, qashqa-daryolik Zoxid Xusanov, Salim Asilov, Qaxramon Xoliyo-rov, toshkentlik Laziz Qobilov, Akbar Yo'ldoshev, xorazmlik Erdon Azizov, Buxorolik Ilxom Daminov, Fayzi Ochilov, Davlat CHoriev, farg'onalik Botir Xayitboev, qoraqalpog'istonlik Murod Boltaniyozov kabi qator polvonlar g'oliblik uchun maydonga tushdilar.

Kurashning ikkinchi kuni Aleksandr Kosturugi yana tomoshabinlarni o'z xarakatlari bilan quvontirdi. YArim final baxsida Tulqin Valievni garchand kichik ustunlik bilan bo'lsa-da, engdi. Final baxslarida Aleksandr O'zbek kurashi bo'yicha jaxon chempioni Maxtumquli Maxmudovni engdi. Jaxon chempioni Toshtemir Muxammadiev o'zbek kurashini chiroyli namoyon eta olgan Aleksandr Kosturugiga bir tuya sovg'a qildi. Kosturugi tuya minib maydon aylanganida xaloyiqning olqishlagani unutilmas bir voqea bo'lib qoldi.

Bu turnirda termizlik yosh polvon SHokir Xudoyberdi-ev xam muxlislar qalbida iliq taassurot qoldirdi. U samarkandlik Ibroxim polvon Karimovni mag'lubiyatga uchratdi. So'ngra qashqadaryolik mashxur polvon Muxammaddo'st Toshev bilan gilamga tushdi. Garchand Muxammaddust tajribali polvon bo'lsa-da, SHokir polvon bellashuvlar chog'ida undan kam emasligini isbotlab, raqibini engdi. So'ngra qashqadaryolik yana bir tanikli polvon Nodirxon Muzaffarov SHokir pol-vondan ustun keldi.

Boysunlik dovrug'li polvon Abdulla Tangrievning turnir maydonida paydo bo'lishi ko'pchilik uchun esda qolarli va quvonarli voqealardan biri bo'ldi. Bilagida kuchi mul, kurash tushish uslubiga ko'ra tezkor va shiddatli bo'lgan Abdulla polvon dastlab Bahrom Eshonqulovni ko'z ochib yumgunga qadar yikitdi. So'ngra katta polvonlardan

biri, ancha xaybatli Rustam Ergashev Abdullaga raqib sifatida maydonga tushdi. Davra ahli shuni ko'rib bildi-ki, Abdulla polvon Rustam polvonga qaraganda ancha kuch-li, epchil va g'ayratli ekan. U ko'p kuttirmadi, raqibini elkasidan oshirib otdi. Muxlislar Abdulla polvonni qiyqirib olqishladilar. YArim finalda Abdulla polvonga qashqadaryolik Nodirxon Muzaffarov yuzma-yuz bo'ldi. Tezkor va naqqon kurashish xadisini puxta egallagan Abdulla ko'p o'tmasdan Nodirxon Muzaffarovni xam mag'lubiyatga uchratdi.

Turnirga tashrif buyurgan eng sara, zo'r polvonlar-ni bir-bir yiqitib, g'oliblik bayrog'ini tiklab kela-yotgan qashqadaryolik Bahrom polvon Avazov mutloq chem-pionatda Abdulla Tangriev bilan gilamga tushadigan bo'ldi. Ikki alp polvonning finaldagi uchrashuvlari, qo'l olishlari xammaning yodida qoldi. Odamlar xali kim g'olib bo'lishini bilmasdilar. Garchand Abdulla polvon Tangriev yosh, kuchli chayir bo'lsa-da, Baxrom Avazov xam dunyoga dovruc solgan polvonlardan biridir. Ikki zo'r polvon bellashuvini chet ellik xakamlar bosh-qarib va nazorat qilib borishdi. Dastlabki daqiqalar-dayoq Abdulla polvon raqibini "chala" bosdi. Ikkinchi safar esa raqibini elkasidan oshirib tashladi. Gapning rosti, Bahrom polvon yaqin o'rtada bu qadar tezkor va aniq harakat qiladigan polvonga duch kelmagan edi. SHu bilan bellashuvda Abdulla polvon raqibini katta us-tunlik bilan engdi. Mutloq g'olib chiqqan Abdulla polvon Tangrievga Prezident sovrini - "Neksiya" engil avtomashinasi na-sib qildi. SHuningdek, vazn toifasiga kura g'olib chiq-qan polvonlarga 500, 300, 200 AQSH dollari miqdori-dagi cheklar, qimmatbaxo sovgalar topshirildi.

3.7. *OLTINCHI TURNIR*

2003 yilning 4-5 aprel kunlari Termiz shaxrida Xa-lqao turnir katta tayyorgarlik va tantanalar ostida bo'ib o'di. Turnir musobaqlarida jaxonning 21 davlatidan kurash mutaxassislari, 19 mamlakatdan polvonlarning ishtirok etishi uning nufuzi va muvaffaqiyati-ni ta'minladi. Arafadagi matbuot anjumanida ommaviy axborot vositalari va matbuot xodimlarining savollariga O'bekiston Respublikasi Davlat sport qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari A.Ochilov, Xalqaro Kurash akademiyasi Prezidenti N.YUsupov, Xalqaro Kurash

Assotsiatsiyasining Bosh kotibi U.YOqubov, Osiyo Kurash konfederatsiyasi xakamlar xay'ati raisi, eronlik Rizo Muxammad Nosiriy, Janubiy Afrika Respublikasi vakili, Xalqaro Kurash assotsiatsiyasi Ijroiya qo'mi-tasi a'zosi Syuzet xonim Bezenxaut, Braziliya, YAngi Zelandiya, Turkiya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Mo'g'iliston, Rossiya kabi mamlakatlardan kelgan mutaxassislar va boshqalar javob berdilar.

"Markaziy Osiyo madaniyati" gazetasi muxbirining "Janubiy Afrika Respublikasida kurash qay darajada ri-vojlamoqda?" degan savoliga Syuzet xonim shunday javob qildi:

- O'zbek kurashi jaxonni o'ziga maxliyo ayladi. Janubiy Afrika Respublikasida esa kurash olovdek tarqal-di. Bu davlatning mingminglab yoshlari sportning shu turi bilan bajonidil shug'ullanishmoqda. Xakamlar tayyorlashga, shu jumladan, ayol xakamlarni o'qitishga katta e'tibor berilmoqda.

Musobaqalarning ochilish marosimi katta tantanaga aylanib ketdi. Folxlor va raqs dastalari, san'at ustalari o'z san'atlarini namoyish etib, yig'ilganlarda xush kayfiyat hosil qildilar.

Ikki kun davom etgan VI Xalqaro turnirda 60, 66, 73, 81, 90, 100 kilogramm va mutloq vaznda 157 nafar polvon gilamga tushdilar. Turkiyalik Selim Tatar o'g'li, Bektosh Demirel, braziliyalik Karlos Xonorato, Aleksandr Gedes, pol'shalik Pavel Malovanets, eronlik Ali Rizo Sonai, yaponiyalik Xidieo Kamamoto, tojikistonlik Rustam Boqiev, Janubiy Afrika Respublikasidan Mark Skot, o'zbekistonlik Abdulla Tangriev, Farhod Juliev, Ilxom Daminov, Davlat CHoriev kabi sara polvon-larning o'zaro bellashuvlari o'yingoxga tashrif buyur-gan o'ttiz ming nafardan oriq; tomoshabin va teleekran qarshisida o'tirgan millionlab kurash muxlislarining chinakam olqishlariga sazovor bo'ldi.

Turgan gapki, bellashuvlar murosasiz bo'ldi. Qat'-iy va shiddatli bellashuvlardan so'ng 60 kilogramm vaznda Rustam Boqiev, (Tojikiston), 66 kilogramm vaznda Suhrob Do'stov (O'zbekiston, Buxoro), 73 kilogramm vaznda Bobomurod Rustamov (O'zbekiston, Buxoro), 81 kilogramm vaznda Isoq Axmedov (O'zbekiston, Qashkadaryo), 90 kilogramm vaznda Karlos Xonorato

(Braziliya), 100 kilogramm vaznda Komil Murodov (O'zbekiston, Toshkent shaxri)lar birinchi o'rinni egallab, turnir shoxsupasiga ko'tarildilar. Surxondaryoliklar uchun eng quvonchlisi, Abdulla Tangrievning yana turnir mutloq g'olibi bo'lganidir. Unga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini - "Neksiya" engil avtomashinasi tantanali ravishda topshirildi.

Turnir musobaqalarida o'z vaznlari bo'yicha birinchi o'rinni egallagan polvonlar 1500, ikkinchi o'rinni egallaganlar 750, uchinchi o'rinni egallaganlar 500 AQSH dollari xamda qimmatbaxo esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Mazkur turnir bilan bevosita bog'liq bo'lgan yana bir quvonchli gapni aytmoq kerak. Bu galgi turnir bellashuv-larida asosan yoshlar, talabalar mahorat bilan ishtirok etishdi. Bu esa kelajagimiz xalol, botir, jismonan baquvvat va ma'naviy jixatdan etuk sportchilar qo'lida ekanligidan nishona edi. Gapimizning tasdig'i sifatida aytmoqchimizki, mazkur xalqaro turnirda birinchi o'rinni egallagan g'olibning ikki nafari - Suhrob Do'stov xamda Bobomurod Rustamovlar Termiz Davlat universitetining iqtidorli talabalaridir.

Dovrug'li polvonimiz Abdulla Tangriev aytganidek, Mustakil O'zbekistonimizning bayrog'ini baland ko'tarish, dunyoga tanitish biz uchun muqaddasdir. Darvoqe, shu gaplarni aytgan Abdullaning bu safargi turnirda erishgan g'alabasi butun respublikamiz axshni g'ururlantirib yubordi.

3.8. ETTINCHI TURNIR

Al-Xakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan an'anaviy VII Xalqaro kurash turniri 2005 yilning 22-24 aprel kunlari Termiz shaxrida bo'lib o'tdi. Ayni bir paytda kurash va belbog'li kurash bo'yicha faxriylar o'rta-sida I Jaxon chempionati xam o'tkazildiki, bu narsa turnirning yana bir esda saqlanib qoladigan jixati yoki yorqin qirrasi edi. Bu safargi turnir musobaqolariga ham dunyoning chor tarafidan mutaxassislar, sara polvonlar yig'ildilar. Eronlik Muxammad Rizo Nosiriy turnirning bosh xakami bo'ldi. Aytish lozimki, xakamlar tarkibida eronlik Xasan Roshshaniy, xindistonlik Muxammad Rizo Minokadesh, janubiy koreyalik Kim El Jung, Turkiyalik Metin Ozkan, isroillik

Pitr Ben Rozen, armanistonlik Serob Andresyanlar bor. Turnir bellashuvlari shiddatli va murosasiz, ayni bir chog'da xalollik bilan o'tdi. Bu gal xam boysunlik mashhur polvon Abdulla Tangriev turnirning mutloq g'olibi sifatida dovuq taratdi. U 17 ming AQSH dollari bilan taqairlandi. Ikkinchi o'rinni esa braziliyalik taniqli polvon Karlos Xonorato egalladi xamda 1500 AQSH dollar sohibi bo'ldi. Ikkita uchinchi o'rinni egal-lagan o'zbekistonlik O'tkir Qurbonov xamda janubiy koreyalik Byung Jin Kanglarga 750 AQSH dollari mikdorida mukofot oldilar.

Avval eslatganimizdek, shu turnir tarkibida o'tkazilgan I Jaxon chempionati tomoshabinlarning e'tiborini o'ziga tortdi. Bunda asosan kurash, belbog'li kurash faxriylari ishtirok etdilar. Masalan, 35-45 yoshdagi faxriylar o'rtasidagi kurashlarda 60 kilogramm vazn toifasida janubiy afrikalik. Redpas Vinsent birinchi, buyuk britaniyalik Pol Soyer ikkinchi, o'zbekistonlik To'ra Xoliqulov, Akrom Axmedovlar uchinchi urinlar-ni egallashdi. SHuningdek, 70 kilogramm vazn toifasida termizlik Maxtumquli Maxmudov, 80 kilogramm vazn toifasida o'zbekistonlik Melis Azizov, 90 kilogramm vaznda o'zbekistonlik Olimjon Xayitov, 100 kilogramm vaznda eronlik Xosrov Dalier, 100 kilogrammdan oshiq vaznda qashqadaryolik Muhammaddo'st Toshevlar g'olib chiqishdi..

46-55 yoshdagi faxriylar o'rtasida 70 kilogramm vazn toifasida Oqmurod Jeparov (Turkmaniston), 75 kilogramm vazn toifasida Boyqobil Nazarov (O'zbekiston), 80 kilogramm vazn toifasida Xasan Eshnazarov (O'zbekiston), 85 kilogramm vazn toifasida Xideo Kamaga (YAponiya), 85 kilogrammdan yuqori vazn toifasida Georgios Andreadis (Gretsiya), 56-60 yoshli faxriylar o'rtasida 70 kilogramm vazn toifasida Nurmuhammad YUsupov (O'zbekiston), 80 kilogramm vazn toifasida Frants Xugendayk (Gollandiya), 85 kilogramm vazn toifasida Safar Qosi-mov (O'zbekiston), 90 kilogramm vazn toifasida To'ra Xo-liqulov (O'zbekiston), 90 kilogrammdan oshiq vazn toifasida esa Laslo Tot (Vengriya) zafar qozonishdi.

Maydonga tushayotgan polvonlarning yoshi xam ulg'ayib boraverdi. 61-65 yoshli faxriy polvonlar o'rtasidagi bellashuvlar xam o'yingoh axlining e'tiborini

o'ziga jalb qildi. 60 kilogramm vazn toifasida o'zbekistonlik Omon Toymurodov, 65 kilogramm vazn toifasida o'zbekistonlik Tursun Yo'ldoshev, 70 kilogramm vazn toifasida o'zbekistonlik Fatxulla Xoliqov, 75 kilogramm vazn toifasida oltinsoylik Boboxon Xudoyberdiev, 65 yoshdan yuk.ori bo'lgan polvonlar o'rtasida o'zbekistonlik Abdurashid Mirzaev, Jiyan Kajapov, Nabi Maxmarasulovlar o'z vazn toifalarida chempion bo'lishdi.

Keksa polvonlarning maydonda kurash tushishlari to-moshabinlarni yanada jonlashtirdi. Masalan, jarqo'r-g'onlik Haqberdi bobo Norboev, angorlik Jo'ra bobo Toshmatovlar birinchi o'rinni qo'lga kiritishdi.

Faxriylar o'rtasida belbog'li kurash bo'yicha o'tkazilgan bellashuvlar ham ko'pchilikda katta qiziqish uyg'otdi. Bunda o'z yosh hamda vazn toifalariga qarab faxriy polvonlar kurash tushdilar. O'zbekistonlik Axmad Bah-romov, Qahramon Tursunbekov, A'zamjon SHokirjonov, Raxmatjon Olimov, Sotqinboy Ergashev, rossiyalik Ra-fael Axmetxanov, Fanis Kuddisov, tojikistonlik Ba-hodir Qurbonov, Safar Toshmurodovlar 1 Jaxon chempionati g'olibi bo'lishdi. G'olib chiqqan barcha faxriy polvonlar munosib taqdirlanishdi.

Taniqli jurnalist Abdug'affor Odina "Oltinsoy tongi" gazetasining 2005 yil 30 aprel sonida "Oltinsoydan chempion chiqdi" sarlavhali xushxabarni e'lon qildi. Keling, shu xushxabarni bu o'rinda keltirib o'taylik: "...2005 yil 2 aprel. Termizdagi"Alpomish"o'yingo-xida Milliy kurash bo'yicha jaxon chempionati oldidan faxriy polvonlar o'rtasida viloyat birinchiligi bo'ldi. Unda tumanimiz vakili sifatida qatnashgan Boboxon polvon Xudoyberdiev faxrli 1-o'rinni oldi.

... 2005 yil 7-9 aprel. Milliy kurash bo'yicha Jizzax-da respublika faxriy polvonlari musobaqasi o'tdi. Unda ham qatnashgan hamyurtimiz Boboxon polvon Xudoyberdiev faxriy 1-o'rinni egallab qaytdi.

... 2005 yil 23 aprel. Termizda buyuk alloma Al-Xakim at-Termiziy xotirasiga bag'ishlab o'tkazilayotgan VII Xalkaro turnir boshlandi.

Musobaqaning dastlabki kuni O'zbek kurashi tarixida birinchi marta faxriy polvonlar o'rtasida I Ja-hon chempionati o'tkazildi. Unda mamlakatimizdan 80

nafardan ziyod va chet ellardan 20 nafardan ziyod keksa kurashchilar vazn toifasiga va yoshiga qarab gilamga chiqarildi.

Bu bellashuvda xam 65 yoshni qarshilayotgan Boboxon polvon yana yigitlardek ko'kragini kerib, davralarni gursillatib o'rta tushganda, qarsaklar havoning ko'ksini yordi. Polvon hamon o'zining tetik va bardam-ligini elga ko'rsatdi. Qaysi polvon bilan gilamga chiqmasin, faqat va faqat sof g'alabaga erishdi.

Xa, Oltinsoyda shunday polvonlar yashayapti. Ana shu haqiqatni Boboxon polvon endi dunyo axliga namoyon qildi. O'z vazn toifasi bo'yicha birinchilar qatorida faxriy polvonlar o'rtasida o'tkazilgan I Jaxon chempionatining g'oli-bi bo'ldi.

Jaxon chempioni Boboxon Xudoyberdiev - Mirshodi qishloq fuqarolar yig'inining "Mustaqillikning 10 yilligi" maxallasida yashaydi. Kasbi - o'qituvchi. 25 yil maktab direktori bo'lib ishlagan. Ayni kunda 47-maktabda boshlang'ich xarbiy tayyorgarlik bo'yicha direktor o'rinbosari vazifasida ishlayapti. "Sog'lom avlod" ordeni sovrindori.



Polvonlar bellashuv natijalari



Халқаро кураш турнирининг ташкилотчилари Д.А-Ҳаким ат-Гермизий қадамжосида



VI турнир. Ғолиблар, ҳакамлар ва ташкилотчилар

XULOSA

Jismoniy tarbiya va sport inson hayotining ajralmas qismidir. Haqiqat sanalgan ko'p narsalar bir kuni barbod bo'lishi, yolg'onga aylanishi mumkin. Biroq sport xaqiqatdir. U aslo yolg'onga aylanmaydi. CHunki u ming yillarning sinovlaridan, chig'iriqlaridan, zamonlarning og'ir imtihonlaridan bir-bir o'tgandir. Hayotini, turmush tarzini sport bilan chambarchas bog'lagan qadimgi yunonlardan tortib toki bugungi ozod o'zbeklarga qadar sportning tiriklik qadar zarurat, hayotiy ehtiyoj ekanligini anglab etishgan. SHunday ekan, sport xaqida besh-o'n kitobda barcha gapni aytib, yozib tugatib bo'lmaydi. Zotan, sportning har bir turi jild-jild kitob bo'lishga arzigulikdir.

Aytish kerakki, birgina o'zbek milliy kurashining o'ziyoq mavzu sifatida (ham ilmiy, ham adabiy) o'nlab olim, adiblarni band etishi mumkin. Xali o'zbek kurashi ilmiy adabiyotlarda ham badiiy adabiyotda ham o'zining to'liq shakl-tamoyilini topgan emas. CHunki uning tarixi uzoq, tomirlari baquvvat va terandir. Uni batafsil o'rganmoq, izlanmoq va qat'iy ish olib borish bilan anglash mumkin. Hozirga qadar qo'limizda bo'lgan adabiyotlar xali ishning ilk bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Albatta, kelgusi nasllar, kelajakning iste'dodli olimlari, ijodkorlari o'zbek kurashini yanada chuqurroq tadqiq qiladilar, uni xar tomonlama ko'zguga solib, uning chiroyi, tarovati, umumbashariy ahamiyatini kengroq namoyon etadilar. Bunga shak-shubha yo'q.

Biz bu risolada mavzu yuzasidan bir qadar cheklandik. Kurashchi qizlarimizga aloqador bo'lgan o'rinlarga, ularga asqotadigan jihatlarga alohida e'tibor berdik. Zero, bugungi o'zbek kurashi rivojida, uning olam aro dovrug'ida o'zbek paxlavon qizlarining ham munosib ulushlari borligidan aslo ko'z yumib bo'lmaydi.

Bugungi o'zbek kurashida polvon qizlarning katta bir guruhi shiddatli to'lqin yanglig' o'zlarini namoyon etmoqdalar. Hali ularning izidan yana yuzlab, balki minglab jismoniy baquvvat qizlar etishib chiqadilar.

Albatta, har qanday ish, xuddi shuningdek, sport va jismoniy tarbiya jabhasida ham zarur qo'llanmalar, foydali adabiyotlar kerak bo'ladi. Ikkinchidan esa, har qanday sport turi ham mutasaddilar, homiylarning xayrixohligi va moddiy ko'magiga muhtojdir. E'tibor va g'amxo'rlik bor joyda har qanday sport turi, shuningdek, milliy kurash ham rivojlanadi. O'zbek kurashining bugungi rivoji, dunyoga dovrug'i mamlakat miqyosida ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik va qat'iyat bilan qilinayotgan ishlarning samarasidir.

Aytish o'rinliki, bugun sportimizda o'zbek palvonlari o'z g'alabalari bilan shuhrat topayotgan ekanlar, bu ham qilinayotgan e'tiborning, katta niyatlarning mevasidir. qolaversa, bu mustaqillikning sharofati hamdir.

ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov, Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik. Toshkent. O'zbekiston 1993y.
2. I.A.Karimov, Halollik va fidoiylilik-faoliyatimizning asosiy me'zoni bo'lsin. Toshkent. O'zbekiston 1994y.
3. I.A.Karimov. YUksak malakali mutaxassislar-taraqqiyot omili. Toshkent. O'zbekiston 1995 y.
4. Karimov .I.A. «YUksak ma'naviyat engilmas kuch»T. "O'zbekiston" 2008.
5. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent. 1999 y. 6-maxsus son.
1. Tojiboev X., Usmonxo'jaev T.S., Harakatli o'yinlar T.,1983
2. Usmonxo'jaev T.S., TSeytlina L.I., Imomxo'jaev A.R.
Boshlang'ich sinflarda harakatli o'yinlar. T. «O'qituvchi» nashriyoti. 1978.
3. Usmonxo'jaev T., F.xo'jaev. 101 o'yin. T. «Ibn Sino» nashr.,1990
4. Normurodov A., Usmonxo'jaev T., 210 ta harakatli o'yinlar T. 2001 Tosh DJI.
5. Nasriddinov F., +osimov A. O'zbek xalq milliy o'yinlari1-to'plam. O'zb DJTI nashr. T. 1993.
6. Ibrohimov O'. Kurash - milliy xalq sport turlaridan biri
Resp.ilm.-amal. anjumani. materiallari buxoro. 2006 1qism 18-20 betlar.
7. Ibrohimov O'. Harakatli o'yinlar - kurash mashg'ulotlarining vositalaridan biri. O'sha erda, II qism. 8-10 bet.
8. Ibrohimov O'. P.To'raev. Kurash - yoshlar ma'naviyatini shakllantirish va tarbiyalash omillaridan biri. O'sha erda 167-169 bet.
9. Ibrohimov O'. Milliy g'oya ruhida tarbiyalashda milliy kurash saboqlari. Resp.ilm-amaliy konferentsiya materiallari. Samarqand, 2007 131-132 bet.
10. Ibrohimov O'., J.Toshpo'latov Kurash sportining yoshlar tarbiyasidagi o'rni. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. T. O'zb.DJTI. 2007 .